

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA
SUV XO'JALIK VAZIRLIGI**

ANDIJON QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI

QISHLOQ XO'JALIGIDA MENEJMENT FAKULTETI

QISHLOQ XO'JALIGIDA MENEJMENT KAFEDRASI

« T A S D I Q L A Y M A N »
fakultet dekani _____
i.f.n.dotsent X.X.KOMOLOV
«____» _____ 2016 yil

«Himoyaga ruxsat etaman»
kafedra mudiri _____
dotsent O.X.MAXMUDOV
«____» _____ 2016 yil

**Fermer xo'jaligini boshqarish va yuritish ta'lim yo'naliشining
bitiruvchisi**
Xolmirzaev Muxammadjon Alisher o'g'lining

BITRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: Oltinko'l tumanidagi "Mash'al ildam sardori" fermer xo'jaligida suv resurslaridan samarali foydalanishni tashkiliy-iqtisodiy asoslari.

BMI rahbarlari:

*i.f.n. B.Abdullaev,
assistant J.Kurbanov
M.Xolmirzaev*

Bajaruvchi:

Andijon - 2016

O'ZBEKISTON QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI
ANDIJON QISHLOQ XO'JALIGI INSTITUTI
IQTISODIYOT VA BOSHQARUV FAKULTETI
QISHLOQ XO'JALIK IQTISODIYOTI VA BOSHQARUV
KAFEDRASI

“T A S D I Q L A Y M A N”
“Qishloq xo'jalik iqtisodiyoti va
boshqaruv kafedrasi mudiri
dotsent O.Shermatov _____
«_____» _____ 2015 y.

Fermer xo'jaligini boshqarish ta'lim yo'nali shining bitiruvchisi
Xolmirzaev Muxammadjonni bitiruv malakaviy ishini bajarish uchun

TOPSHIRIQ

- 1. Bitiruv malakaviy ishining mavzusi** *institut rektorining 2015 yil 18 sentyabrdagi № 240-St(A) buyrug'i bilan tasdiqlangan.*
- 2. BMIning mavzusi:** Oltinko'l tumanidagi “Mash'al ildam sardori” fermer xo'jaligida suv resurslaridan samarali foydalanishni tashkiliy-iqtisodiy asoslari.
- 3. Bitiruv malakaviy ishni tugatish vaqtি** « 20 » may 2016 yil.
- 4. Bitiruv malakaviy ishning asosiy bo'limlari.** *BMI kirish, asosiy qism, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.*
- 5. Bitiruv malakaviy ishni bajarish uchun kerakli ma'lumotlar.** *O'zbekiston Respublikasining qishloq xo'jaligida iqtisodiy isloqatlarni o'tkazishga oid bo'lgan qonunlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Maxkamasining qarorlari, I.A.Karimov asarlari, mavzuga oid maxsus adabiyotlar, hamda Oltinko'l tumanidagi “Mash'al ildam sardori” fermer xo'jaligida 2013-2015 yillar uchun biznes rejalar, yillik xisobotlari va mavzuga oid bo'lgan boshqa ma'lumotlari.*
- 6. Bitiruv malakaviy ishda foydalaniladigan jadvallar.** *Bitiruv malakaviy ishida mavzuning mohiyatini yoritishga yordam beradigan 10-12 ta jadvallarni tuzilishi ko'zda tutilgan bo'lib, ulardan 3 tasi bevosita himoya jarayonida foydalaniladi.*

Bitiruv malakaviy ishning asosiy savollari	BMI ni rahbari	Bajarilish muddati	Imzo
Kirish	assistant J.Kurbanov	15.12.2015y	
1-bob. Qishloq xo'jaligida suv resurslaridan foydalanishning nazariy asoslari.			
1.1 Qishloq xo'jaligida suv resurslaridan samarali foydalanishning mazmuni va mohiyati.	assistant J.Kurbanov	12.01.2016y	
1.2 Qishloq xo'jaligida suv resurslaridan foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari.	assistant J.Kurbanov	20.01.2016y	
2-bob: Oltinko'l tumanidagi "Mash'al ildam sardori" fermer xo'jaligida suv resurslaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari tahlili.			
1.3 Oltinko'l tumanidagi "Mash'al ildam sardori" fermer xo'jaligining umumiy tavsifi.	assistant J.Kurbanov	07.02.2016y	
1.4 Oltinko'l tumanidagi "Mash'al ildam sardori" fermer xo'jaligini iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari va ularning tahlili.	assistant J.Kurbanov	27.02.2016y	
3-bob: Oltinko'l tumanidagi "Mash'al ildam sardori" fermer xo'jaligida suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari.			
1.5 Oltinko'l tumanidagi "Mash'al ildam sardori" fermer xo'jaligida mahalliy o'g'it solish texnologiyalarining g'o'za hosildorligiga ta'siri.	F.Asatullaev	12.03.2016y	
1.6 Oltinko'l tumanidagi "Mash'al ildam sardori" fermer xo'jaligida suvdan samarali foydalanishni tashkil etish masalalari.	assistant J.Kurbanov	04.04.2016y	
Xulosa va takliflar.	assistant J.Kurbanov	02.05.2016y	
Foydalanimgan adabiyotlar.	assistant J.Kurbanov	20.05.2016y	

Topshiriq berilgan vaqt: 18 sentyabr 2015 yil.

*BMI raxbarlari: i.f.n. B.Abdullaev,
assistant J.Kurbanov*

Bitiruvchi: M.Xolmirzaev

M u n d a r i j a

№	Mazmuni	Betlar
	Kirish.	

1-bob. Qishloq xo'jaligida suv resurslaridan foydalanishning nazariy asoslari.

1.1	Qishloq xo'jaligida suv resurslaridan samarali foydalanishning mazmuni va mohiyati.	
1.2	Qishloq xo'jaligida suv resurslaridan foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari.	

2-bob: Oltinko'l tumanidagi “Mash’al ildam sardori” fermer xo'jaligida erishilgan iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari va ularning tahlili.

2.1	Oltinko'l tumanidagi “Mash’al ildam sardori” fermer xo'jaligining umumiy tavsifi.	
2.2	Oltinko'l tumanidagi “Mash’al ildam sardori” fermer xo'jaligini iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari va ularning tahlili.	

3-bob: Oltinko'l tumanidagi “Mash’al ildam sardori” fermer xo'jaligida suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari.

3.1	Oltinko'l tumanidagi “Mash’al ildam sardori” fermer xo'jaligida mahalliy o'g'it solish texnologiyalarining g'o'za hosildorligiga ta'siri.	
3.2	Oltinko'l tumanidagi “Mash’al ildam sardori” fermer xo'jaligida suvdan samarali foydalanishni tashkil etish masalalari.	
	Xulosa va takliflar.	
	Foydalanilgan adabiyotlar.	

KIRISH

Mavzuning dolzarbliyi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini barqarorlashtirish borasida mavjud sug'orma dehqonchilik va suv resurslari salohiyatidan samarali foydalanish darajasi muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "O'zbekiston kadimdan sug'orma dehqonchilik mamlakati bo'lib kelgan. Sug'orma dehqonchilik oziq-ovqat sohasida respublika mustaqilligining negizi va asosiy eksport mahsulotining manbaidir". Jahan moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida agrar sohada iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish borasida 2015 yilda O'zbekistonda 7 million 500 ming tonnadan ziyod g'alla, 3 million 350 ming tonnadan ortiq paxta xirmoni barpo etildi. SHu bilan birga, qishloq xo'jaligining meva-sabzavotchilik, bog'dorchilik, uzumchilik va chorvachilik kabi tarmoqlari ham jadal sur'atlarda rivojlandi. O'tgan yili 12 million 592 ming tonna sabzavot va kartoshka, 1 million 850 ming tonna poliz mahsulotlari, 1 million 556 ming tonna uzum, 2 million 731 ming tonna meva yetishtirildi. Yurtboshimiz qishloq xo'jalik sohasida birinchi navbatda, tuproq unumdoorigini oshirish choralarini ko'rish barcha agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida bajarish, zamonaviy agrotexnikalarni joriy qilish, selleksiya va urug'chilikni yanada rivojlantirish, mehnatni tashkil etish va rag'batlantirish bilan bog'lik, hali beri ishga solinmagan katta imkoniyatlar mavjudligini alohida ta'kidlab o'tdilar. Hammamizga ma'lumki dehqonchilikning asosiy xususiyati shundan iboratki, u yirik irrigatsiya tizimi xizmat qiladigan sug'oriladigan yerlarga asoslanadi. Haydaladigan maydonlarning to'rtadan uch qismidan kuprog'i sug'oriladigan yerlardir. Shuning uchun ham istikbolda qishloq xo'jaligining rivojlanishi bevosita suv resurslaridan tejaml foydalanishga qaratilgandir.

Respublika qishloq xo'jaligini rivojlantirishda suv resurslaridan samarali foydalanishning ahamiyati kattadir. Chunki mamlakatimizda 67 miliard m³ suv resurslari bo'lib uning 92 foizi qishloq xo'jaligida ishlataladi. Oxirgi yillarda ob-havoning noqulay kelishi va qo'shni davlatlarning suvlarini asossiz jilovlab

olinishi natijasida talab etiladigan suv miqdori tanqis bo'lib kelmokda. Respublikada suv resurslaridan samarali foydalanishning ilg'or texnologiyalarini amaliyotga joriy etish natijasida qishloq xo'jalik mahsulotlarining xajmini oshirish dolzARB muammolardan biri bo'lib turibdi. 2015 yilda paxpa yetishtirishda g'uzaga 4-5 martadan sug'orish o'rniga 2 marta sug'orish joriy etilishi natijasida ham istiqboldagi mahsulotni yetishtirishga erishildi. Hukumatimizning asosiy e'tibori qishloq xo'jaligini rivojlantirishda suv resurslaridan samarali foydalanishni intensiv yo'l bilan hal etishga qaratilgan.

Yuqoridagilarni qayd etib fermer xo'jaliklarida suv resurslaridan samarali foydalanishning tashkiliy va iqtisodiy asoslarini ilmiy asosda o'rganib ijobiy takliflar ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish tanlab olingan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Qishloq xo'jaligida suv resurslaridan foydalanishni tashkiliy-iqtisodiy asoslarini urganish bo'yicha tadkikotlar olib borish natijasida ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chikishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:

- qishloq xo'jaligida suv resurslarilan samarali foydalanishning mazmuni va mohiyatini o'rganish;
- qishloq xo'jaligida suv resurslaridan foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini o'rganish;
- Oltinko'l tumanidagi "Mash'al ildam sardori" fermer xo'jaligining joylashgan o'rni va tasnifini o'rganish;
- Oltinko'l tumanidagi "Mash'al ildam sardori" fermer xo'jaligini iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini tahlil qilish;
- Oltinko'l tumanidagi "Mash'al ildam sardori" fermer xo'jaligida suvdan samarali foydalanishni tashkil etish masalalari;
- Fermer xo'jaliklarida suv resurslaridan samarali foydalanishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish yo'llarini izlash.

Tadqiqotning predmeti va o'rganish ob'ekti. Tadqiqotning predmeti bozor

iqtisodiyoti sharoitida fermer xo'jaliklarini suv resurslari bilan ta'minlashning tashkiliy-iqtisodiy munosabatlari hisoblanadi. Tadqiqotni o'rganish ob'ekti Oltinko'l tumanidagi "Mash'al ildam sardori" fermer xo'jaligi hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, 3 ta bob, xulosa va takliflar va foydalanilgan adabiyotlar ruyxatini o'z ichiga olgan. Bitiruv malakaviy ishining birinchi bobi "Qishloq xo'jaligida suv resurslaridan foydalanishning nazariy asoslari" deb nomlangan bo'lib, unda Qishloq xo'jaligida suv resurslarilan samarali foydalanishning mazmuni va mohiyati, Qishloq xo'jaligida suv resurslaridan foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari keng yoritilgan. Bitiruv malakaviy ishining ikkinchi bobi "Oltinko'l tumanidagi "Mash'al ildam sardori" fermer xo'jaligida erishilgan iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari va ularning tahlili" deb nomlangan bo'lib, Oltinko'l tumanidagi "Mash'al ildam sardori" fermer xo'jaligining joylashgan o'rni va tasnifi o'rganilgan hamda Oltinko'l tumanidagi "Mash'al ildam sardori" fermer xo'jaligini iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari tahlil qilingan. Bitiruv malakaviy ishining uchinchi bobi "Oltinko'l tumanidagi "Mash'al ildam sardori" fermer xo'jaligida suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari" deb nomlangan bo'lib, Oltinko'l tumanidagi "Mash'al ildam sardori" fermer xo'jaligida suvdan samarali foydalanishni tashkil etish masalalari bo'yicha taxlillar o'tkazilib suvdan samarali foydalanish bo'yicha bir nechta takliflar berilgan hamda Fermer xo'jaliklarida suv resurslaridan samarali foydalanishni davlat tomonidan qo'llab quvvatlash tizimini rivojlantirish yo'llari o'rganib chiqilgan va bir nechta taklif va tavsiyalar berilgan. Bitiruv malakaviy ishining xulosa va takliflar qismida bitiruv malakaviy ishini yozish davomida o'rganilgan xulosalar va xulosalar asosida mavzuga doir taklif va tavsiyalar berib o'tilgan hamda bitiruv malakaviy ishi yozish davomida foydalanilgan adabiyotlar ketma-ketligi ko'rsatib o'tilgan.

I BOB. QISHLOQ XO'JALIGIDA SUV RESURSLARIDAN

FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Suv resurslarilari samarali foydalanishning mazmuni va mohiyati

Er qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning asosiy vositasi sifatida suv bilan birlgilikda amal qiladi. Suv esa qishloq xo'jalik mahsuloti hosil bo'ladigan muqarrar omildir. Yer optimal namga ega bo'lgandagina unumdar bo'ladi va yuqori hosil olinishini ta'minlaydi. Hosil yetishtirish uchun qaytmas tarzda sarflanadigan juda ko'p suv kerak bo'ladi. O'simlik o'sishi davrida har bir gektar maydon tuprog'idan minglab tonna suv atmosferaga chiqariladi. Mahsulot hosil bo'lishi uchun yuzlab kubometr suv o'simliklar orqali o'tib, bug'lanishi kerak. Masalan 1 tonna kartoshka hosili yetishtirishda, suvgaga extiyoj 1500 m^3 ni, kuzgi bug'doy yetishtirishda 600 m^3 ni paxta yetishtirishda 3000 m^3 ni, sholi yetishtirishda 13500 m^3 ni tashkil etadi. Madaniy o'simliklar me'yorda rivojlanishi uchun tuproqning o'sish davridagi namligi 70-75% ni tashkil qilish kerak. Xududning katta qismida esa bundan anchagina pastdir. Tuproq namligining kamligi yoki ortiqchaligi qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligi darajasiga salbiy ta'sir etadi. Tuproq suv rejimini tuproq aktiv qatlamida namlik aktiv balanslarini hosil qilish va uni butun o'sish davrida saqlab turishga qaratilgan melioratsiya tadbirlari yordamidagina tartibga solib turish mumkin. Tuproq suv rejimining to'la tartibga solinadigan turini texnologik jihatdan mukammal sug'orish tizimlarigina ta'minlay oladi. Qishloq xo'jaligida sug'oruv suvidan foydalanish yerdan foydalanish bilan uzviy bog'liqdir. Suvning iste'mol qiymati sug'orma dexqonchilikning pirovard natijalari hisobga olingan holdagina ko'rib chiqilishi mumkin. Ishlab chiqarish vositasi bo'lgan suvning qiymati ishlab chiqarish jarayonidan ajratilsa yo'qoladi. Sug'orish manbalaridan olingan sug'oruv suvi o'z xususiyatiga egadir. Bu suv belgilangan muddatda va kerakli miqdorda muayyan uchastkaga yuborilishi kerak. Bu shartlarni bajarmaslik qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Sug'oruv suvidan foydalanish samaradorligini oshirish davlat ahamiyatiga

molik vazifa hisoblanadi. Suv resurslaridan samarali foydalanishning mohiyati kam harajatlar bilan sug'oruv suvi birligiga eng ko'p mahsulot olishdadir. Bunga turli xil texnologik, tashkiliy va iqtisodiy tadbirlarni amalga oshirish yo'li bilan erishiladi. Sug'orma dexqonchilikda suvdan foydalanish samaradorligini quyidagi ko'rsatkichlar harakterlab beradi.

- sug'orish tizimining foydali ishlashi koeffitsiyenti
- sug'orish tizimida suvdan foydalanish koeffitsiyenti
- sug'oruv suvining unumdarligi

Qishloq xo'jaligida suvning ko'pgina qismi qaytmas tarzda sarflanishi qayd qilib o'tildi. Suvning qaytmas tarzda iste'mol qilinishi sabablaridan biri uning irrigatsiya tizimlarida shamilishi va bug'lanishi natijasida yo'qotilishidir. Bu yo'qotilishlar iste'mol qilinadigan hamma suvning 20-25%ni, goxo esa 40% ni tashkil etadi. Suvning yo'qotilishi sug'orish tizimi foydali ishlashi koeffitsiyenti (KPD)da aks etadiki, bu maydonga oqib boradigan suvning (Wn -t) muayyan davr (dekada, oy, o'sish davri) ichida sug'orish manbalaridan (Wbr) olingan suv miqdoriga nisbatidir.

KPDs Wnt Wbr

Suv olish xajmi bilan berilgan suv o'rta sidagi farq shamilishi va bug'lanishga ketgan yo'qotishlarni tashkil etadi. $[(1-KPD)*100]$ ifodasi bo'yicha tizimdagi suv yo'qotishlar foizi aniqlanadi. Sug'orish tizimi foydali ishlashi koeffitsiyentiga xo'jaliklararo shaxobcha (KPD m.x.) va xo'jalik ichidagi shaxobcha (KPDvx) kiradi va bu ifoda quyidagicha aniqlanadi. Foydali ishslash koeffitsiyenti sug'orish tizimining texnika darjasи, tuproq harakteri, relef va xokazolarga bog'liq bo'ladi. U har bir tizim uchun yil davomida o'zagarib turadi. Bunda u yerli o'zanlarda kanallari bo'lgan va gidrotexnik ishnootlar bilan kam jixozlangan sug'orish tizimlarida ancha ko'p tebranib turadi. Suvning anchagina qismi xo'jaliklararo shaxobcha va kanallarida yo'qoladi. Umuman mamlakat bo'yicha xo'jaliklararo va xo'jaliklar ichidagi shaxobchada sug'orish manbalaridan olingan butun suv xajmining 40% dan ko'prog'i yo'qoladi. SHuning uchun

sug'orish tizimlari foydali ishlash koeffitsiyentining o'sishi suv tejashining muhim rezervidir. Suvning shaxobchada yo'qolishi katta moddiy zarar keltiradi. Namning bevosita yo'qolishidan tashqari, uning shimilib ketishi yer osti suvlari ko'tarilishiga, tuproqlarni sho'r bosishiga, sug'oriladigan yerlar melioratsiya holati yomonlashishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari bu suvlarni sug'oriladigan uchastkalardan chetga oqizib yuborish uchun ko'p mablag' sarflashga to'g'ri keladi. Suvning dalalarda yo'qotilishi ham sodir bo'lib turadi: bunda suvning ma'lum qismi ildizlar o'sadigan qatlamdan pastga shimilib, yer osti suvlariga qo'shiladi, shuningdek maydonlar sirtidan bug'lanib ketadi. Suvning umumiyo yo'qolishlari tizim suvlaridan foydalanish (KIVS)ni koeffitsiyentida aks etadi. Bu koeffitsiyent o'simliklarning maydonlardagi suvni foydali iste'mol qilishining sug'orish manbalaridan olingan suv miqdoriga nisbatidir.

KIVS ye•G' Wbr

bunda:

E-qishloq xo'jalik ekinlarining muayyan vaqt ichida foydali suv iste'mol qilishi, m3 ga

G' – sug'oriladigan maydonga Wbr – sug'orish manbaidan olingan suv miqdori, m3 Tizimdagisi suvdan foydalanish koeffitsiyenti o'simliklar hosil yaratish uchun sug'orish manbaidan olingan suvning qanchasini iste'mol qilishini, $[(1 - KIVs) \cdot 100]$ ifodasi tizim va daladagi suv sarfinining umumiyo foizini ko'rsatadi. Sug'oruv suvining umumiyo yo'qolishlari sug'orish tizimlaridagi suvdan ularni texnika jihatdan ishlatishni yaxshilash hisobiga oqilona ishlatish rezervlari mavjudligini ko'rsatadi. Sug'oruv suvidan foydalanish unumdarligining ko'rsatkichi suvdan foydalanish samaradorligining umumlashuvchi ko'rsatkichidir. Sug'oruv suvidan foydalanish unumdarligi (POV) ko'rsatkichi esa tabiiy yoki qiymat ko'rinishida (AVP) ishlab chiqarilgan mahsulotning sug'orish manbai (Wbr) dan olingan suvning umumiyo xajmiga nisbatida aniqlanadi.

POV AVP Wbr

Suv tanqis bo'lган qurg'oqchilik rayonlarida yer maydoni gektaridan emas,

balki 1 m³ suv hisobiga eng ko'p mahsulot olish vazifasi qo'yiladi. Sug'oruv suvi unumdorligining ko'rsatkichi sintetik ko'rsatkichdir. U tuproqning mahsulot ishlab chiqarish xajmida ifodalanadigan iqtisodiy unumdorligi bilan chambarchas bog'liqdir. Bu ko'rsatkich qishloq xo'jalik korxonalarining xo'jalik faoliyati va sug'orish tizimlarini ishlatish darajasini harakterlab beradi. Sug'oruv suvidan oqilonan foydalanish muammosi hozirgi vaqtda favqulotda ahamiyat kasb etmoqda. Sug'orish texnikasini takomillashtirish va mavjud tizimlarni rekonstruksiya qilish bo'yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda. Sug'orish tizimlarining texnika darajasini oshirish (tizimlarini gidrotexnika va suv o'lchagich inshootlari bilan jixozlash, kanallarga shimalishga qarshi qoplamlar o'rnatish, yopiq truboprovodlar qurish, sug'orishning ilg'or usullarini qo'llash) yer va suvdan foydalanishni yaxshilashga yordam beradi.

1.2. Qishloq xo'jaligida suv resurslaridan foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari

Mamlakatimiz iqtisodiyotini erkinlashtirish jarayonining muhim ustivor yo'nalishlaridan biri bo'lib, mavjud resurs saloxiyatidan samarali foydalanish asosida agrar majmuida chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish hisoblanadi. Agrar majmuida o'tkazilayotgan tashkiliy-iqtisodiy islohotlar eng avvalo yer-suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirishga va ulardan samarali foydalanishga qaratilgan.

Respublikada suv resurslarining 93 foizga yaqini agrar sohada foydalaniladi. Sug'oriladigan yerlarda dehqonchilik mahsulotlarining 97 foizdan ortig'i yetishtiriladi. Ammo, istiqbolda suv ta'minoti respublika iqtisodiyotini, shu jumladan qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini rivojlantirishni cheklovchi jiddiy omil hisoblanadi. Bunday holat davlatlararo suv taqsimoti bilan bog'liklik bo'lgan suv resurslari tanqisligining kuchayishi, xududiy suv xo'jaligi tizimida daryo oqimlari tartibining o'zgarishi, Agrar xavzasi daryolarining suv o'tkazish qobiliyati kamayishi ehtimoli va suv resurslari sifatining yomonlashishi bilan ifodalaniladi.

Chuchuk suv manbalari bo'yicha Markaziy Osiyo davlatlari dunyodagi

mamlakatlar o'rtasida birinchi o'rinni egallaydi. Biroq chuchuk suvlar ushbu davlatlar xalq xo'jaligida to'liq foydalanilmaydi. Suv manbaalari O'zbekiston Respublikasida xududlar bo'yicha bir tekis joylashgan emas. Suv manbaalarining qariyb barchasi ko'p yillik muzliklar, qor va yomg'irlar hisobiga tashkil bo'ladi. Asrlar davomida Markaziy Osiyo davlatlari, shu jumladan O'zbekiston Respublikasida suv resurslarining tanqisligi sezilib turgan. Bu jarayon hozirgi kunda yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda. SHu nuqtai nazardan yer usti va yer ostidagi suv resurslarini tejab foydalanish maqsadida suv xo'jaligi tizimini har tomonlama rivojlantirishni talab qiladi. Suv resurslaridan foydalanish umumiyligi bo'lishga karamasdan, suv xo'jaligida suvga bo'lgan ta'sir va unga bo'lgan talab har xildir. Shuning uchun ham suv xo'jaligi kator sohalarga bo'linadi. YA'ni: suvsiz va quruq yerlarga suv chiqarish; yerlarning zaxini qochirish; yaylov yerlarga suv chiqarish; shahar va qishloqlarni suv bilan ta'minlash; gidroenergetika; baliq xo'jaligi; suv manbaalarining ifloslanishini muxofaza qilish va boshqalar. Bunday yerlarga o'rtacha bir yilda gektariga 1000 - 30000 m³ gacha suv iste'mol kiladi.

Yaylov yerlarga saflanadigan suv harajatlari ancha katta bo'lmokda, ammo u ko'pincha yoz oylariga to'g'ri keladi. Bunday sharoitda suvning katta qismi yer osti suv manbaalaridan quduq va boshqa inshoatlar yerdamida olinadi. Gidroenergetika, baliq xo'jaligi va boshqa tarmoqlar suvni sarf qilmaydi. Baliq, ular asosan uning kuchidan yeki suv hosil kilgan kulay sharoitlardan foydalanishadi.

Qishloq xo'jalik yerlarining zaxini qochirish, suv toshqiniga yo'l qo'ymaslik, yerlar sho'rланishining oldini olish, suv eroziyasi va boshqalar suv manbaalarining ifloslanishining oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'kidlash lozimki, suv xo'jaligining asosiy vazifasi - ishlatishga loyiq bo'lган suvni iste'molchilarga yetkazib berishdan iboratdir. Ushbu vazifani bajarish uchun suv xo'jaligi yetarli moddiy-texnika bazasiga ega bo'lishlari zarur. Suv xo'jaligining katta qismi o'zlarining boshqaruviga egadirlar. Masalan O'zbekiston

Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi Vazirligining "Suv xo'jaligi" bosh boshqarmasi. Uning xududlardagi xavzaviy irrigatsiya tizimlari tomonidan mamlakatdagi suv iste'molining 50 foizdan ortiq ish faoliyati ta'minlanadi. Shuningdek suvni qayta ishlab chiqarishda ularning manbaalari ifloslanishining oldini olish vazifasini ham bajaradi. Suv manbaalaridagi suvdan foydalanish suv xo'jligining turli tarmoqlariga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Jumladan suv omborlari yerlarni suv bilan ta'minlashni oshirish bilan bir vaqtning o'zida boshqa iste'molchilar ishlataidigan suv miqdorining kamayishiga olib keladi. Suv omborlari atrofida yer osti suvlarining ko'tarilishi tuproq sho'rланishiga olib keladi. Shuning uchun ham suv xo'jaligi tadbirlarini amalga oshirishda barcha tarmoqlarning suv resurslariga bo'lgan talablarini to'la e'tiborga olishni taqozo qiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida suvgaga talab yanada oshmoqda va aksari xududlarda mahalliy suv manbaalari o'zlarining hozirgi holati bo'yicha ushbu talablarga yetarlicha javob bermayapti. SHu nuktai nazardan ham, iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida suv xo'jaligi boshqarish tizimini takomillashtirish hayotiy zaruriyatga aylanmokda. O'z mohiyatiga kura boshqarish - ko'p mazmun kasb etadigan tushunchadir. U biror bir ob'ektning barqarorligini ta'minlash maqsadida unga ma'lum darajada ta'sir qilish zaruriyati yuzaga kelganda yoki bir tizimdan boshqa tizimga o'tish kerak bo'lgan holatlarda keng qo'llaniladi. Demak, boshqarish boshqaruva ta'sirini ifodalash uchun ishlataladi.

Suv xo'jaligi tashkilotlarini boshqarish ma'muriyati ishchilari jamoa mehnati predmetiga (texnika, qurilma va boshqalar) ta'sir qilmaydi, balki yagona jamoaning tarkibi va nisbatan faol qismi hisoblanadi hamda moddiy boylik yaratishda faol ishtirok etadi.

Suv xo'jaligi xalk xo'jligining yirik, mustaqil tarmog'i hisoblanib, o'ziga xos va ishonchli xususiyatlarga ega. Suv xo'jaligida ishlab chiqarish jarayonining xususiyati shundan iboratki, unda boshqa tarmoqlardan farqli ularoq inson mehnati suv resurslaridan foydalanishga, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini

yaxshilashga, irrigatsiya qurilmalaridan unumli foydalanishga va irrigatsiya ob'ektlarining uzoq muddat foydalanishni ta'minlashga qaratilgan.

Er va suv qishloq va suv xo'jaligi iqtisodiyotida umumiylit va o'zaro bog'likliklik xususiyatiga ega bo'lib, ularni rivojlantirish dialektik qonuniyat hisoblanadi. Amaliyot tajribalari ko'rsatishicha, sug'orma dehqonchilikda ekstensiv omil hisobiga ishlab chiqarishni yanada ko'tarish imkoniyatlari cheklangan. YAngi yerlarni o'zlashtirish va ishlab chiqarishga jalg etish asosan xaydaladigan yerlar va boshqa qishloq xo'jalik yerlari hisobiga amalga oshiriladi.

Keyingi yillarda sug'oriladigan yerlar maydoni odam bosh soniga hisoblaganda qisqarmoqda. Ikkinci tomondan mehnat qobiliyatiga ega qishloq aholisi sonining o'sib borishi yer - suv resurslaridan hamda asosiy ishlab chiqarish fondlaridan nisbatan samarali va unumli foydalanishni talab qiladi.

Suv resurslaridan foydalanishning amaldagi darajasi, uni ko'paytirish imkoniyatlarining chegaralanganligi suv resurslaridan foydalanishni yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishni xech kechiktirib bo'lmasligini zaruriyat qilib qo'yadi.

Sug'orma dehqonchilikning YAna bir xususiyati shundan iboratki, u yaylov larga nisbatan tabiat injqliklariga nisbatan kamrok bog'liklik bo'ladi. O'z navbatida, yaylov dehqonchiligi xududida joylashgan xo'jaliklarga nisbatan sug'orma dehqonchilik sharoitida qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish bilan shug'ullanayotgan shirkat va fermer xo'jaliklari ichki xo'jalik gidromeliorativ tizimlariga, ya'ni: nasos stansiyalari; kanal va sug'orish tarmoqlari; kollometor va boshqa kurilmalarga ega. Ta'kidlash lozimki, hozirgi kunda sug'oriladigan yerlarning 50 foizdan ortig'i nasos stansiyalari yordamida suv bilan ta'minlanadi. O'zbekistonda 1500 ga yakin sug'orish va meliorativ nasos stansiyalari faoliyat ko'rsatmoqda.

Respublikaga suv resurslari asosan Qирг'изистон, Тоҷикистон ва Авғонистон respublikalaridan oqib keladi. Bu eng avvalo har xil sabablarga ko'ra suv tanqisligini va davlatlararo yangi iqtisodiy munosabatlarni yuzaga keltiradi. Ushbu

ayrim davlatlarning qonunchiligidagi suv davlat mulki sifatida qaraladi. Bu holat qishloq va suv xo'jaligi iqtisodiyotida o'ziga xos xususiyatlarni keltirib chiqaradi.

Suv bu xududlararo xususiyat kasb etuvchi tabiat mahsulidir. U iste'mol qilinadigan o'nlab va xatto yuzlab kilometr joyga kanallar, sug'orish tarmoqlari, gidrotexnik qurilmalar yordamida yetkazib beriladi. hozirgi kunda sug'orish kanallarining umumiy uzunligi 200 ming km. ga yaqinni tashkil kiladi.

Suv xo'jaligi tashkilotlarida boshqaruv ma'muriyati suv xo'jaligining xususiyatlaridan kelib chiqib, nafaqat tarmoqlararo, ya'ni texnik - iqtisodiy rejalashtirish, buxgalterlik hisobi va moliyaviy faoliyat tahlili kabi ishlarni, balki o'z faoliyatiga doir (mehnat jarayonlariga zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish va loyixalashtirish, loyixalashtirishda fan-texnika yutuklarini ta'minlash, suv xo'jaligi ob'ektlarini qurish va foydalanish, suv resurslaridan oqilona foydalanishni boshqarish va nazorat qilish, xo'jaliklararo suv tarmoqlarining joriy va kapital ta'mirini sifatli o'tkazish va boshqalar) ishlarni ham bajaradi.

Suv xo'jaligi ishlab chiqarishida ishlab chiqarish bo'limlari juda tarqoq joylashgan (50-60 km va undan ko'proq xududlarda). Rahbar va mutaxassislarning harakatida vaqt safini va harakatlarni kamaytirish uchun ularning boshqaruv faoliyatida bir xil va bir-biriga o'xshash ishlarni ko'proq bajarish imkoniyatlarini yaratish maqsadga muvofiqdir. Suv xo'jaligi tashkilotlarida ishlarning mavso'miyligi ishlab chiqarishni tashkil qilish va boshqarish jarayonlariga bevosita ta'lulqli mehnat davrlarining tig'izligi bo'yicha har-xillikka olib keladi. SHu bilan birga suv xo'jaligi tashkilotlari boshqaruv ma'muriyati xodimlarining muhim vazifalaridan biri ishchi kuchi va mehnat vositalaridan to'liq foydalanishni, mehnat jarayonlarining bir tekisligini va uzliksizligining yukori darajasini ta'minlash hisoblanadi. Boshqaruv ma'muriyatining vazifasi amaliyotda ushbu masalalarni ishlab chiqarish jarayonlarini unga mos kelmaydigan ish davrlari bilan muvofiqlashtirish yo'li bilan oqilona xal qilishdir. Demak, amaliy jihatdan olganda, har bir tashkilot har qanday davrda ham ishlab chiqarish holatlarining barcha tamoyillarini e'tiborga olgan holda masalaning eng maqbul variantini

topishi zarur.

Suv xo'jaligida keyingi davrda ma'lum ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. Biroq, yakuniy natijalar asosiy va aylanma vositalar bilan ta'minlanganligiga, ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va markazlashtirish darajasiga, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga, suv xo'jaligi ob'ektlarining xududiy joylashishiga, zamonaviy texnikalar va ishchi kuchi bilan ta'minlanganligiga, tabiiy-iklimiy sharoitlari va boshqa omillarga bog'liqlik bo'lishga qaramasdan deyarli bir xil ishlab chiqarish sharoitlarida joylashgan tashkilotlarda xo'jalik faoliyatining yakuniy natijalari tubdan farqlanadi. Bunday holatning asosiy sabablaridan biri tashkilotlarda mehnatni tashkil etish va boshqarish darajasining har-xalligi bilan ifodalanadi.

Suv xo'jaligi tizimida bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi korxonalarning mustaqillagini va huquqlarini kengaytirdi. Bu o'z navbatida, suv xo'jaligi ishlab chiqarishida boshqaruv mehnatini tashkil etishga uslubiy tarzdan to'g'ri yondashishni talab kiladi. Bu suv xo'jaligi tashkilotlarining me'yoriy xo'jalik faoliyati uchun talab qilinadigan rahbar, mutaxassis va texnik xodimlarning oqilona sonini aniqlashga, ularga ta'luqli boshqarish va qarorlar qabul qilish uslublarini tanlashga ta'luqlidir. SHu bilan birga, kelgusida suv xo'jaligi ishlab chiqarishini boshqarishning sifatini oshirish uchun boshqaruv ishchilarining sonini oshirish kutilgan samarani bermaydi. CHunki, boshqaruv xodimlari sonini ko'paytirish ortiqcha harajatlarga olib keladi, ichki xo'jalik ma'lumotlari ko'payadi va qarorlar qabul qilishda ma'lum qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bu esa boshqaruv mehnati unumdorligining kamayishiga sabab bo'ladi va suv xo'jalik ishlab chiqarishining barcha boskichlaridagi natijalariga salbiy ta'sir qiladi. SHu nuktai nazardan ham, iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida suv xo'jaligini boshqarish tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Suv xo'jaligi boshqarish tizimini takomillashtirish deyilganda, suv xo'jaligining barcha bo'g'inlarida bozor iqtisodiyoti tamoyillarini joriy qilish, soha iqtisodiyotini erkinlashtirish, qishloq va boshqa tarmoq xo'jaliklari bilan shartnoma munosabatlarini tug'ri yo'lga qo'yish, suv resurslariga

baho belgilash mexanizmini ilmiy asoslash tushuniladi. O'zbekiston Respublikasida suv xo'jaligini boshqarish tizimini bozor iqtisodiyoti qonuniyatlar asosida faoliyat ko'rsatishini ta'minlash nafaqat suv resurslaridan tejab-tergab unumli foydalanishda va balki yakuniy mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublika iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonining muhim ustivor yo'nalishlaridan biri mavjud resurs salohiyatidan samarali foydalanish asosida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish hisoblanadi. Qishloq xo'jaligida olib borilayotgan islohotlar yer-suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirishga va ulardan samarali foydalanishga qaratilgan. Mamlakatimizda suv resurslarining 92 foizi qishloq xo'jaligida foydalaniladi. Dehqonchilik mahsulotlarining 97 foizdan ortig'i sug'oriladigan yerlarda yetishtiriladi. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini rivojlantirishda davlatlararo suv taqsimoti bilan bog'lik bo'lgan suv resurslari tanqisligining kuchayib, suv resurslari keskin kamayib bormoqda.

Shu maqsadda yer usti va yer ostidagi suv resurslarini tejab foydalanish maqsadida suv xo'jaligi tizimini har tomonlama rivojlantirishni talab qilmoqda.

Qishloq xo'jaligini suv bilan ta'minlash; irrigatsiya mellioratsiya ishlarini olib borish zarur. Bundan tashqari yerlarning zaxini qochirish, suv, yerlar sho'rланishining oldini olish, suv eroziyasi va boshqalar suv manbaalarining ifloslanishining oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

Suv xo'jaligining asosiy vazifasi suvni iste'molchilarga yetkazib berish, suv O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining "Suv xo'jaligi" bosh boshqarmasi, tarkibidagi xududiy irrigatsiya xavza boshqarmasi tomonidan ta'minlanadi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida suv xo'jaligi boshqarish tizimini takomillashtirish hayotiy zaruriyat ekanligini ko'rsatdi.

Jahon amaliyoti tajribalarida boshqarish tizimining 3 ta turi mavjud bo'lib, ular ayrim ishlab chiqarish texnologik jarayonlarni, tizimlarni, mashina va mexanizmlarni ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarishdir.

Ishlab chiqarish sohasida - u bevosita ish bajaruvchilarni, jamoa mehnati

jarayonida yuzaga ular munosabatlarini, insonlar faoliyatini boshqarishdir.

Suv xo'jaligi ishlab chiqarishini boshqarishda ishlab chiqarishda yukori natijalarga erishishda har xil uslub va vositalar yordamida amalga oshiriladigan yagona ishlab chiqarish jarayonidagi mehnat vositalari, predmetlari, kishilar jamoasiga uzluksiz va maqsadli yo'naltirilgan ta'sir qilishdan iborat.

Suv xo'jaligi ishlab chiqarishida boshqaruv mehnati o'ziga xos quyidagi xususiyatlarga ega: boshqaruv suv xo'jaligi ishlab chiqarishida to'g'ridan-to'g'ri yoki bevosita ishtirok kilmaydi, balki jamoa mehnatini boshqaradi; ushbu mehnatning bevosita quroli bo'lib axborot va ma'lumotlar, vositasi bo'lib esa tashkiliy texnikalar hisoblanadi; boshqaruv ma'muriyati ishchilari, ayniqsa rahbar va mutaxassislari suv xo'jaligi tashkilotlarining eng faol va ustun huquqli qismi hisoblanadi; boshqaruv ma'muriyati ishchilarining mehnati asosan aqliy mehnat bo'lib, ayrim jismoniy mehnat elementlarini ham o'z ichiga oladi; boshqaruv mehnatining unumdorligini faqat texnik xodimlar va doimiy qaytalanuvchi va mehnat jarayonlari me'yorashtirilgan ishlar bilan bog'lik bo'lgan ayrim mutaxassislar uchungina aniqlash mumkin.

Suv xo'jaligini boshqarishning yakuniy natijasi foyda olish hisoblanadi. Boshqaruv samaradoligini boshqaruv ob'ektdagi ishlab chiqarish natijasidir.

Suv xo'jaligida ishlab chiqarish jarayonining xususiyati inson mehnati suv resurslaridan foydalanishga, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga, irrigatsiya qurilmalaridan unumli foydalanishga va irrigatsiya ob'ektlarining uzoq muddat foydalanishni ta'minlashga qaratilgan.

Sug'oriladigan yerlar xajmi mehnatga qobiliyatli aholi sonining o'sib borishi yer - suv resurslaridan hamda asosiy ishlab chiqarish fondlaridan nisbatan samarali va unumli foydalanishni talab qiladi.

Shuning uchun suv resurslaridan foydalanishni yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishni kechiktirib bo'lmaydigan zaruriyatdir.

Suv xo'jaligi tashkilotini boshqarish xalk xo'jaligining boshqa tarmoqlariga qaraganda ancha murakkab bo'lib quyidagi xususiyatlarga bog'lik: mehnat

jamoalari va bo'limlarining boshqaruv markazidan uzoq joylashganligi; suv xo'jaligi ishlarini bajarishda (ekskavator, buldozer, skreper va boshqa) yerning moslanuvchanligi; ishlab chiqarish quollaridan foydalanishda ma'lum davrlardagi notekislik va murakkablik; ob'ektning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarining notekis rivojlanishi va boshqalar.

Suv xo'jaligi tashkilotlarida boshqaruv apparati suv xo'jaligining xususiyatlaridan kelib chiqib, texnik - iqtisodiy rejalashtirish, buxgalterlik hisobi va moliyaviy faoliyat taxlili, mehnat jarayonlariga zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish va loyihalashtirish, loyihalashtirishda fan-texnika yutuqlarini ta'minlash, suv xo'jaligi ob'ektlarini qurish va foydalanish, suv resurslaridan oqilona foydalanishni boshqarish va nazorat qilish, xo'jaliklararo suv tarmoqlarining joriy va kapital ta'mirini sifatli o'tkazish va ishlarni bajaradi.

Suv xo'jaligi bo'limlari tarqoq joylashganligi (50-60 km va undan ko'proq xududlarda). Rahbar uchun boshqaruv faoliyatida bir xil va bir- biriga o'xshash ishlarni ko'proq bajarish imkoniyatlarini yaratish maqsadga muvofiqdir.

Suv xo'jaligi ishlarning mavso'miyligi, ishlab chiqarishni boshqarish jarayonlari xilma-xildir. Suv xo'jaligi tashkilotlari boshqaruv xodimlarining vazifalaridan ishchi kuchi va mehnat vositalaridan to'liq foydalanishni, mehnat jarayonlarining bir tekisligini va uzluksizligining yuqori darajasini ta'minlash hisoblanadi.

So'ngi yillarda mamlakatimiz suv xo'jaligida ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. Boshqaruv tizimi shakillanib, bozor iqtisodiyoti sharoitida asosiy va aylanma vositalar bilan ta'minlanish, ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish, ijtimoiy- iqtisodiy sharoitlar, zamonaviy texnikalar va ishchi kuchi bilan ta'minlanish yaxshilandi. Shunday qilib, qishloq xo'jaligida suv resurslaridan foydalanishning tashkiliy tuzilmasini takomillashtirishga va suv xo'jaligi korxonalari iqtisodiy samaradorligini oshirishda boshqaruvning ustuvor yo'naliшlarini belgilab olishdan iborat.

**II BOB. OLTINKO’L TUMANIDAGI “MASH’AL ILDAM
SARDORI” FERMER XO’JALIGIDA ERISHILGAN IQTISODIY
SAMARADORLIK KO’RSATKICHLARI VA ULARNING TAHLILI**

**2.1. Oltinko’l tumanidagi “Mash’al ildam sardori” fermer xo’jaligining
umumiyl tavsifi**

Oltinko’l tumanidagi “Mash’al ildam sardori” fermer xo’jaligi Mash’al massivining Qo’shtepasaroy qishloq fuqarolar yig’inida joylashgan. Fermer xo’jaligi 2010 yil 25 aprelda № 378-Q sonli tuman hokimining qarori bilan tashkil etilgan. G’arb tomondan «Billur vodiy ziynati» fermer xo’jaligi bilan, shimol tomondan esa «Oltinko’lning oltin zarlari» fermer xo’jaligi bilan, janub tomondan “Olimjon hosildor” bog’i fermer xo’jaligi bilan, sharq tomondan “Safarobod yulduzi” fermer xo’jaliklari bilan chegaradosh. “Zilol mash’al suvi” SIU ga a’zo va oqava suvdan foydalanadi. Xo’jalik viloyat markazidan 33 km, tuman markazidan esa 14 km o’zoqlikda joylashgan. Fermer xo’jaligi OAJ MTPdan 1 km, O’zkimyo dan 1 km, neftbazadan 0,5 km, don qabul qilish shaxobchasiidan 13 km, paxta tozalash zavodidan 2 km, pillakashlik korxonasiidan 8 km uzoqlikda joylashgan. Xo’jalik OATB Agrobank Oltinko’l tumani bo’limidan № 202080004456278001, MFO 00063, INN 206011348 hisob raqamini ochgan. Xo’jalikka ajratilgan jami yer uchastkasi 70,35 ga bo’lib, shundan 59,1 ga yerga yekin yeqilib keladi va 6,5 ga tutzorlar, 1,25 ga suv osti yerlar, 2,4 ga ijtimoiy binolar va 1,1 ga yo’llar bilan band.

Tuproq turi bo’z tuproq bo’lib, yer uchastkasi 100% tekisliklardan iborat. Ajratilgan yer uchastkasi 4 konturdan iborat bo’lib, o’rtacha bonitet bali 64 ballni tashkil etadi.

“Mash’al ildam sardori” fermer xo’jaligining yerlari unumdon hisoblanib tuprog’i qora bo’z tuproq bo’lib u kimyoviy elementlarga va chirindiga ancha boydir. Ushbu yerlarda samarali texnologiyalarni qo’llash asosida paxta va bug’doy ekinlaridan yuqori hosil olish imkoniyatlari mavjud.

1-jadval

Oltinko'l tumanidagi "Mash'al ildam sardori" fermer xo'jaligiga ijaraga berilgan yer uchastkalarini tuproq bonitet ballari to'g'risida ma'lumot

T\R	Er uchastkalari		Bonitet ballari	Er maydoni, ga	O'rtacha bonitet bali	Karta lar soni
	Kadastr guruxi	Sinf				
1	1 kadastr guruxi	1-sinf	0 dan 10 gacha			
		2-sinf	11 dan 20 gacha			
2	2 kadastr guruxi	3-sinf	21 dan 30 gacha			
		4-sinf	31 dan 40 gacha			
3	3 kadastr guruxi	5-sinf	41 dan 50 gacha			
		6-sinf	51 dan 60 gacha	59,1	55	4
4	4 kadastr guruxi	7-sinf	61 dan 70 gacha			
		8-sinf	71 dan 80 gacha			
5	5 kadastr guruxi	9-sinf	81 dan 90 gacha			
		10-sinf	91 dan 100gacha			

Manba: Oltinko'l tumanidagi «Mash'al ildam sardori» fermer xo'jaligi ma'lumotlari

1-jadvalda Oltinko'l tumanidagi «Mash'al ildam sardori» fermer xo'jaligiga ijaraga berilgan yer uchastkasining tavsifi berilgan. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, fermer xo'jaligini ekin maydoni 3 kadastr guruhining 3 sinfiga oid bo'lib uni o'rtacha bonitet balli 55 ga teng. U 4 ta sug'orish kartasidan iborat. Sug'orish kartalarini o'rtacha xajmi 14 getktarni tashkil etadi. Sug'orish kartalari quyidagilardan iborat. Birinchi sug'orish kartasini xajmi 12 getktar, ikkinchi sug'orish kartasini xajmi 15,2 getktar, uchinchi sug'orish kartasini xajmi 16 getktar, to'rtinchi sug'orish kartasi 15,9 getktarga teng bo'lib jami ekin maydoni 59,1 getktarni tashkil etadi.

2-jadval

Oltinko'l tumanidagi "Mash'al ildam sardori" fermer xo'jaligini ekin maydoni va uni tarkibi

t\r	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2013	%	2014	%	2015	%	2015 y.da 2013 y.ga nisbatan, %
1	Jami ekin maydoni	ga	59,1	100	59,1	100	59,1	100	100,0
1.1	shundan: Paxta	ga	31,2	52,8	31,2	52,8	31,2	52,8	100,0
	Hosildorlik	s\ ga	35,5		36,5		38,2		107,6
	Yalpi hosil	sentner	1107,6		1138,8		1191,8		107,6
1.2	Don	ga	27,9	47,2	27,9	47,2	27,9	47,2	100,0
	Hosildorlik	s\ ga	66,2		69,5		75,0		113,3
	Yalpi hosil	sentner	1847		1939,1		2092,5		113,3
2.	Xodimlar soni	nafar	17	100,0	19	100,0	19	100,0	111,8
2.1.	Paxtachilikda	nafar	13	76,5	14	73,7	14	73,7	107,7
	Donchilikda	nafar	4	23,5	5	26,3	5	26,3	125,0
3	Erni bonitet bali	ball	55		55		55		

Manba: Oltinko'l tumanidagi "Mash'al ildam sardori" fermer xo'jaligi yillik statistik ma'lumotlari

Fermer xo'jaligi "Zilol mash'al suvi" suv iste'molchilari uyushmasiga a'zo hisoblanadi. Ekinlarni sug'orishda Ulug'nor mozgilsoy oqava suvlaridan foydalanadi.

Jami ekin maydoniga nisbatan 2015 yilda paxta va g'alla maydonini 52,8\47,2 foizni tashkil etgan. Fermer xo'jaligida paxta hosildorligi o'rtacha bo'lib, gektariga 38,2 sentnerni tashkil etadi. Bug'doy hosildorligi esa 75 sentnerga to'g'ri keldi. Lekin xo'jalikda paxta va g'alla hosildorligini yanada ko'tarish imkoniyati mavjud. Fermer xo'jalikda paxtani «Andijon-35» navi, bug'doyni esa «Andijon-4» navlari ekiladi.

Jumladan, xo'jalikka o'zoq muddatga ijaraga berilgan yer uchastkasining bonitet bali 55 ni tashkil etib, uni ko'tarish chora tadbirlarini ko'rish lozim. Ya'ni yerni meliorativ holatini yanada yaxshilash mumkin.

Undan tashqari xo'jalikda samarali texnologiyalardan foydalanish imkoniyati ham bor. Fermer xo'jalikda yiliga 2015 yil holatiga ko'ra 19 nafar xodim ishlab, ulardan 14 tasi paxtachilikda, qolgan 5 tasi g'allachilikda faoliyat ko'rsatmoqda.

3-jadvalda Oltinko'l tumanidagi "Mash'al ildam sardori" fermer xo'jaligining a'zolari va shartnomma asosida ishlayotgan xodimlari tarkibi to'g'risida ma'lumot berilgan.

Xo'jalikda faoliyat ko'rsatayotgan a'zolar ishlab chiqarish bo'yicha ish tajribalari talab darajasida, lekin ularni kasbiy tayyorgarligi va ma'lumoti to'g'risida bunday fikrga kelish mumkin emas. Sababi xo'jalikda faoliyat ko'rsatayotganlarning barchasi o'rta va o'rta-maxsus ma'lumotga egadir.

Fermer xo'jaligi rahbari Xolmirzaev O'ktamjon 1979 yil 9 iyulda tavallud topgan. ma'lumoti o'rta. 14 yil ish stajiga ega. Fermer xo'jaligi rahbari bo'lgunga qadar OATB Xalq banki Oltinko'l tumani bo'limida nazoratchi lavozimida ishlagan.

3-jadval

**Oltinko'l tumanidagi "Mash'al ildam sardori" fermer xo'jaligining a'zolari
va ularning tarkibi to'g'risida ma'lumot**

№	A'zolarning ismi va sharfi	Tug'il gan yili	Ma'lumoti	Kasbi	Ish staji	Qarind oshligi	Ko'shim- cha egallagan kasbi
1	Xolmirzaev O'.	1977	o'rta	rahbar	14	O'zi	haydovchi
2	Tursunboyev F.	1961	o'rta- maxsus	ish yurituvch i	13	yo'q	yo'q
3	Nabijonova D	1979	o'rta- maxsus	ishchi	12	yo'q	yo'q
4	Kodirova S	1981	o'rta- maxsus	ishchi	14	yo'q	yo'q
5	Rasulova X	1984	o'rta- maxsus	ishchi	10	yo'q	yo'q
6	Mamatisaeva M	1985	o'rta- maxsus	ishchi	12	yo'q	hamshira
7	Begmatova K	1977	o'rta	ishchi	11	yo'q	oshpaz
8	Askarova N	1988	o'rta- maxsus	ishchi	13	yo'q	chevar
9	Valiyev B.	1983	o'rta- maxsus	suvchi	9	yo'q	yo'q
10	Qobilova D.	1981	o'rta- maxsus	ishchi	12	yo'q	chevar
11	Parpiyev Z.	1984	o'rta- maxsus	suvchi	9	yo'q	haydovchi
...							
22	Mamajonov X.	1975	o'rta	trak-chi	13	yo'q	haydovchi

Manba: Oltinko'l tumanidagi «Mash'al ildam sardori» fermer xo'jaligi ma'lumotlari

Xodimlarning ko'pchiligi dehqonlardir. SHuning uchun ham ularning kasbiy tayyorgarligiga va ma'lumotiga alohida etibor berish zarur. Bunda har bir xodimning kamida 2-3 ta bir biriga yaqin bo'lgan kasbiy tayyorgarliklarni egallashi alohida ahamiyatga egadir. Xo'jalikda ishlovchilar orasida barchasi

oilalidir.

Oltinko'1 tumanidagi Mash'al ildam sardori fermer xo'jaligini moddiy texnik bazasi yaxshi taminotga ega.

4-jadvalda Oltinko'1 tumanidagi «Mash'al ildam sardori» fermer xo'jaligini asosiy vositalari aks ettirilgan. Asosiy vositalar deganda-mahsulot ishlab chiqarish jarayonida ko'p marta qatnashib, o'zining qiymatini ishlab chiqarilgan mahsulotga qisman o'tkazib boradigan vositalarga aytildi. Asosiy vositalar tarkibiga quyidagilar: traktorlar, kombaynlar, qishloq xo'jaligi mashinalari, avtomashinalari, bino- inshoatlar, ko'p yillik daraxtazorlar, ishchi va mahsuldor hayvonlar va boshqa uzoq muddat foydalaniladigan vositalar kiradi.

4-jadval jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, Oltinko'1 tumanidagi «Mash'al ildam sardori» fermer xo'jaligida asosiy vositalar bilan ta'minlanganlik holati ancha qoniqarli hisoblanadi.

Fermer xo'jaligida bir dona MTZ-80 traktori bor. Bundan tashqari 1 ta kultivator, 1 ta seyalka, 1 ta chizel, 1 ta tekislash agregati, 1 ta omoch kabi moslamalari ham bor. Barcha texnikalar va qishloq xo'jaligi mashinalarining texnik holati talab darajasida bo'lib, muntazam texnik tekshiruvlardan o'tkazilib turiladi.

Oltinko'1 tumanidagi “Mash'al ildam sardori” fermer xo'jaligini moddiy texnik bazasi.

4-jadval

T\R	Texnika turi	Soni	Holati
1	MTZ-80	1	soz
3	kultivator	1	soz
4	seyalka	1	soz
5	Chizel	1	soz
6	Tekislash agregati	1	soz
7	Omoch	1	soz

Manba: Oltinko'1 tumanidagi «Mash'al ildam sardori» fermer xo'jaligi ma'lumotlari

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki fermer xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarning umumiyligi soni 19 nafarni tashkil etib ulardan 7 nafari a'zolar, qolgan 12 nafari esa shartnomaga asosida ishlayotganlardir.

Oltinko'l tumanidagi «Mash'al ildam sardori» fermer xo'jaligi rahbari Xolmirzaev O'ktamjon Andijon viloyatining Oltinko'l tumanidagi Mash'al massivinig Toptiq qishloq fuqarolar yig'inida 1977 yilda tug'ilgan. Ma'lumotli oliv, qo'shimcha mutaxassisligi iqtisodchi. 2010 yildan boshlab «Mash'al ildam sardori» fermer xo'jaligini boshlig'i bo'lib ishlamoqda

Fermer xo'jaligini istiqboldagi rivojlanishi ko'p jihatdan uni jamoasining kasbiy tayyorgarligi va xo'jalikdagi mutaxassis kadrlardan qay darajada samarali foydalanishiga bog'liqdir. Yuqoridagalarni hisobga olib fermer xo'jaligida a'zolarning kasbiy tayyorgarligini va ma'lumotini oshirish chora tadbirlarining ko'rish o'ta dolzarb masala hisoblanadi. Bu sohada fermer xo'jaligi maxsus dastur tuzib uni bosqichma-bosqich amalga oshirilishini ta'minlanishi lozim, aks holda fermer xo'jaligini zamon talablariga mos holda rivojlantirish hamda uni texnik texnologik va iqtisodiy mustaqilligini to'la ta'minlash masalasini ijobiy hal etish imkoniyati bo'lmaydi.

Oltinko'l tumanidagi «Mash'al ildam sardori» fermer xo'jaligida mavjud qishloq xo'jaligi texnikalari va ularning holati to'g'risidagi ma'lumot bilan tanishib chiqqanimizda MTZ-80 1 ta chropiq traktor mavjudligini ko'rib o'tdik. Xo'jalikda traktor chropiq va ekishda foydalanadi. Bundan ko'rinish turibdiki ta'minlanganlik darajasi o'rtacha bu bir tarafdan, ikkinchi tarafdan bunday kichik fermer xo'jaligi uchun texnika sotib olish qimmatga tushadi. SHu sababli ho'jalik tumandagi MTP bilan shartnomaga tuzib texnikalardan foydalanadi.

2.2. Oltinko'l tumanidagi "Mash'al ildam sardori" fermer xo'jaligini iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari va ularning tahlili

Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlanirishda qishloq xo'jaligi sohasi muhim sanaladi. Chunki, qishloq xo'jaligi asosiy sanoat korxonalarimizning tayanchi hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi umumiy ko'rinishda ishlab chiqarishning natijasi, jonli va buyumlashgan mehnat harajatlari o'rtasidagi nisbat bilan ifodalananadi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligini oshirishning ob'ektiv zarurligi mamlakat iqtisodiy rivojlanishining hozirgi bosqichdagi bir qator xususiyatlari va doimiy harakatdagi omillarning yig'indisiga bog'liq. Bir tomonda qishloq xo'jalik ishlab chiqarish samaradorligini oshirish oziq-ovqat va hom ashyyoga bo'lgan talabning o'sib borishi va qiyinlashishi, mahsulot sifatiga bo'lgan talabning kuchayishi, ba'zi ishlab chiqarish resurslarining chegaralanganligi, ishlab chiqarish vositalari qiymatining o'zgarishi va boshqalarni ko'rsatib turadi.

Boshqa tomondan, hozirgi etapdagi jamiyatning rivojlanishi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligin oshirish imkoniyatini kengaytiradi.

Mamlakatda to'plangan iqtisodiy potensial, fan va texnikaning rivojlanishi, malakali kadrlar, ommanning aktivligi, ularning tajribasi, shuningdek yuqori pirovard natijalarga ommanning moddiy qiziqishining o'sishi o'simlikchilik va chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirishga sharoit yaratadi, tannarxni pasaytiradi va rentabellikni oshirish imkoniyatlaridan oqilona foydalanishga imkon beradi.

Oltinko'l tumanidagi "Mash'al ildam sardori" fermer xo'jaligi dehqonchilikka ixtisoslashtirilgan bo'lib, xo'jalik yerlariga asosan paxta, don va takroriy ekinlar ekiladi. Fermer xo'jaligi tasarrufidagi ekin maydonlarining faoliyat davomida 3 yil mobaynidagi tarkibi, ekinlar strukturasi va xodimlar soni haqidagi ma'lumotlarni yuqorida batafsil keltirilgan.

5-jadval

Oltinko'l tumanidagi “Mash'al ildam sardori” fermer xo'jaligining iqtisodiy samaradorligi

Nº	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2013 y.	2014 y.	2015 y.	2015 yilda 2013 yilga nisbatan %
1	Ekin maydoni	ga	59,1	59,1	59,1	100,0
	a) paxta	ga	31,2	31,2	31,2	100,0
	b) bug'doy	ga	27,9	27,9	27,9	100,0
2	Ishlab chiqarish harajatlari	ming so'm	133412,7	151057,5	172594,0	129,4
	SHundan ish haqi	ming so'm	27360,7	30952,0	33661,8	123,0
3	Xodimlar soni	nafar	17	19	19	111,8
4	Yalpi mahsulot	ming so'm	167698,0	190391,4	220557,6	131,5
5	Foyda	ming so'm	34285,3	39333,9	47963,6	139,9
7	1 ga hisobiga yalpi mahsulot	ming so'm	2837,5	3221,5	3731,9	131,5
8	1 xodim hisobiga: a) yalpi mahsulot	ming so'm	9864,6	10020,6	11608,3	117,7
	b) ish haqi	ming so'm	1609,5	1629,1	1771,7	110,1
9	Rentabellik	%	25,7	26,0	27,8	2,1

Manba: Oltinko'l tumanidagi“Mash'al ildam sardori” fermer xo'jaligi ma'lumotlari

5-jadvalda “Mash'al ildam sardori” fermer xo'jaligini iqtisodiy samaradoligi aks etilgan. Tahlil shuni ko'rsatdiki oxirgi ikki yilda fermer xo'jaligini iqtisodiy samaradoligi ma'lum darajada yaxshilangan.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki so'nggi uch yilda fermer

xo'jaligining barcha samaradorlik ko'rsatkichlari ortgan. Jumladan yalpi mahsulot 131,5 % ga, foyda ko'rsatkichi 139,9 % ga ortgan. Samaradorlikni yakunlovchi ko'rsatkichi bo'lган rentabellik darajasi 2015 yilda 2013 yilga nisbatan 2,1 foizga oshgan. Xo'jalikning erishgan rentabellik darajasi talabdan past bo'lib uni optimal darajaga yetkazash uchun kamida 40 foizga ko'tarish talab qilinadi. Aks holda fermer xo'jaligi kengaytirilgan takror ishlab chiqarish uchun yetarlicha moliyaviy imkoniyatlarga ega bo'lmaydi.

Fermer xo'jaligining boshlig'ini o'z oldiga qo'ygan maqsadlari mavjud bo'lib ularni amalga oshirish xo'jalikni iqtisodiy samaradorligini keskin oshirilishini ta'minlash mumkin. Jumladan istiqbolda fermer xo'jaligi yerlarini meliorativ holatini yaxshilash asosida uni unimdorligini oshirish, mehnat va boshqa ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish amalga oshirilishi ko'zda tutilmoqda. Undan tashqari fermer xo'jaligida qo'shimcha tarmoqlarni tashkil etish va rivojlantirishga ham alohida etibor beriladi.

6-jadvalda "Mash'al ildam sardori" fermer xo'jaligida paxta ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi ko'rsatilgan.

Jadval ma'lumotlariga ko'ra oxirgi uch yilda fermer xo'jaligini paxta yetishtirishni iqtisodiy samaradorligi barcha ko'rsatkichlar bo'yicha ijobjiy tomonga o'zgargan. Buni biz yer birligi va xodim hisobiga olingan yalpi mahsulot va ish xaqini ko'payganligidan ko'rishimiz mumkin. So'ngi uch yil ichida paxta yetishtirish bo'yicha yalpi mahsulot 124,9 % ga, foyda 127,3 % ga oshgan. Bir xodim hisobiga yalpi mahsulot 116 % ga oshganligi mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi ijobjiy holatda ekanligini ko'rishimiz mumkin. Natijada samaradorlikning asosiy ko'rsatkichi bo'lган rentabellik darajasi 17,9 foizdan 18,3 foizga ko'tarilgan.

6-jadval

Oltinko'l tumanidagi "Mash'al ildam sardori" fermer xo'jaligida paxta ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi

Nº	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2013 y.	2014 y.	2015 y.	2015 yilda 2013 yilga nisbatan %
1	Ekin maydoni	ga	31,2	31,2	31,2	100,0
2	Hosildorlik	s/ga	35,5	36,5	38,2	107,6
3	Yalpi hosil	sentner	1107,6	1138,8	1191,8	107,6
4	Ishlab chiqarish harajatlari	ming so'm	83211,8	93021,7	103604,3	124,5
	Shundan ish haqi	ming so'm	21135,8	23813,6	25383,0	120,1
5	Xodimlar soni	nafar	13	14	14	107,7
6	Yalpi mahsulot	ming so'm	98122,3	109290,6	122586,7	124,9
7	Foyda	ming so'm	14910,5	16268,9	18982,4	127,3
9	1sentner paxtani tannarxi	so'm	75128	81684	86928	115,7
10	1 sentner paxtani sotish bahosi	so'm	88590	95970	102855	116,1
11	1 ga hisobiga: a) yalpi mahsulot	ming so'm	3144,9	3502,9	3929,1	124,9
	b)harajatlar	ming so'm	2667,0	2981,5	3320,6	124,5
12	1 xodim hisobiga: a) yalpi mahsulot	ming so'm	7547,9	7806,5	8756,2	116,0
	b) ish haqi	ming so'm	1625,8	1701,0	1813,1	111,5
13	Rentabellik	%	17,9	17,5	18,3	0,4

Manba: "Mash'al ildam sardori" fermer xo'jaligi ma'lumotlari

Lekin fermer xo'jaligida paxta yetishtirish bo'yicha iqtisodiy samaradorlik hali optimal darajada emas. Fermer xo'jaligida erishilgan rentabellik darajasini kamida 30 foizga ko'tarish kerak. Shundagina fermer xo'jaligi paxta yetishtirish bo'yicha kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moliyaviy mablag'larga ega bo'ladi.

7-jadvalda fermer xo'jaligida paxta yetishtirish harajatlari va ularni tarkibi aks ettirilgan.

7-jadval

Oltinko'l tumanidagi "Mash'al ildam sardori" fermer xo'jaligida paxta yetishtirish harajatlari va ularning tarkibi

Nº	Harajatlar turi	2013	%	2014	%	2015	%
1	Moddiy harajatlar	53838,0	64,7	59440,9	63,9	69414,9	67
	a) urug'lik	6490,5	7,8	8465,0	9,1	11292,9	10,9
	b) o'g'itlar	19721,2	23,7	22790,3	24,5	26626,3	25,7
	v) Yo.M.M	16226,3	19,5	16836,9	18,1	20513,6	19,8
	g) ish va xizmatlar	8487,6	10,2	7534,8	8,1	6734,3	6,5
	d) boshqa moddiy harajatlar	2912,4	3,5	3813,9	4,1	4247,8	4,1
2	Mehnat haki harajatlari	21135,8	25,4	23813,6	25,6	25383,0	24,5
3	Ijtimoiy ajratmalar	5283,9	6,4	5953,4	6,4	3833,4	3,7
4	Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni eskirishi	2329,9	2,8	2418,6	2,6	2900,92	2,8
5	Boshqa harajatlar	582,5	0,7	1395,3	1,5	2072,1	2
	jami	83211,8	100,0	93021,7	100	103604,3	100,0

Manba: "Mash'al ildam sardori" fermer xo'jaligi ma'lumotlari

Fermer xo'jaligida paxta yetishtirish bo'yicha sarflanayotgan barcha harajat turlarni oshib borishi bilan bir qatorda ularni tarkibida keskin o'zgarishlar ro'y bermoqda. Narx-navoning ortishi hisobiga paxta yetishtirish harajatlari ortib bormoqda. Harajatlar ortishi bilan bir qatorda yaratilayotgan yalpi mahsulot miqdori ham ortib borayotganligi hisobiga umumiylar harajatlarda mehnat xaqi harajatlarining ulushi kamayib borganligini ko'rishimiz mumkin. Bizni fikrimizcha

xo'jalikda moddiy harajatlar xissasini ortib borishini ijobiy o'zgarish deb qabul qilishimiz mumkin. Sababi uni tarkibiga paxta hosildorligi bevosita ta'sir ko'rsatuvchi harajatlar kirganligi uchun ularni ulushini qisqartirilishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

8-jadval

**Oltinko'l tumanidagi "Mash'al ildam sardori" fermer xo'jaligi
Oltinko'l tumanidagi fermer xo'jaliklari bilan paxta yetishtirishning
solishtirma iqtisodiy ko'rsatkichlari**

Nº	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Oltinko'l tumanidagi	Mash'al ildam sardori fermer xo'jaligi bo'yicha	Farqi %
1	Ekin maydoni	ga.	5841	31,2	X
2	Hosildorlik	s\ga	35,8	38,2	106,7
3	Yalpi hosil	sentner	209107,8	1191,84	X
4	Ishlab chiqarish harajatlari	ming so'm	18177322,8	103604,3	X
5	Shundan: ish haqi	ming so'm	4453444	25383,0	X
6	1 sentner paxtani tannarxi	so'm	86928	86928	100,0
7	1 sentner paxtani sotish baxosi	so'm	95685	102855	107,5
8	Yalpi mahsulot	ming so'm	20008480	122586,7	X
9	Foyda	ming so'm	1831157,0	18982,4	X
10	1 ga hisobiga:				
	a)harajatlar	ming so'm	3112,0	3320,6	106,7
11	a) yalpi mahsulot	ming so'm	3425,5	3929,1	114,7
12	b) foyda	ming so'm	313,5	608,4	194,1
13	Rentabellik	%	10,1	18,3	8,2

Manba: "Mash'al ildam sardori" fermer xo'jaligi ma'lumotlari

8-jadvalda "Mash'al ildam sardori" fermer xo'jaligi Oltinko'l tumanidagi

fermer xo'jaliklari bilan paxta yetishtirishning solishtirma iqtisodiy ko'rsatkichlari berilgan.

9-jadval

Oltinko'l tumanidagi "Mash'al ildam sardori" fermer xo'jaligida bug'doy yetishtirishning iqtisodiy samaradorligi

Nº	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2013	2014	2015	2015 yilda 2013 yilga nisbatan %
1	Ekin maydoni	ga	27,9	27,9	27,9	100,0
2	Hosildorlik	s/ga	66,2	69,5	75,0	113,3
3	Yalpi hosil	sentner	1846,98	1939,1	2092,5	113,3
4	Ishlab chiqarish harajatlari	ming so'm	50200,9	58035,8	68989,7	137,4
	Shundan ish haqi	ming so'm	6224,9	7138,4	8278,8	133,0
5	Xodimlar soni	nafar	4	5	5	125,0
6	Yalpi masulot	ming so'm	69575,7	81100,8	97970,9	140,8
7	Foyda	ming so'm	19374,8	23065,0	28981,1	149,6
9	1 sentner bug'doyni tannarxi	so'm	27180	29930	32970	121,3
10	1 sentner bug'doyni sotish baxosi	so'm	37670	41825	46820	124,3
11	1 ga hisobiga: a) yalpi mahsulot	ming so'm	2493,8	2906,8	3511,5	140,8
	b) harajatlar	ming so'm	1799,3	2080,1	2472,8	137,4
12	1 xodim hisobiga: a) yalpi mahsulot	ming so'm	17393,9	16220,2	19594,2	112,6
	b) ish haqi	ming so'm	1556,2	1427,7	1655,8	106,4
13	Rentabellik	%	38,6	39,7	42,0	3,4

Manba: "Mash'al ildam sardori" fermer xo'jaligi ma'lumotlari

Agarda fermer xo'jaligida paxta yetishtirish bo'yicha sarflanayotgan barcha harajat turlarni oshib borishi bir oz bo'lsada qisqartirishga erishilsa fermer xo'jaligi foydasi yanada ortishiga erishish mumkin.

Jadval ko'rsatkichlaridan ko'rinish turibdiki, fermer xo'jaligida paxta yetishtirish bo'yicha erishilgan natijalar Oltinko'l tumanidagi fermer xo'jaliklariga qaraganda yuqoriligin ko'rishimiz mumkin. Bu holat rentabellikda o'z aksini to'la topgan, ya'ni fermer xo'jaligini erishilgan rentabelligi Oltinko'l tumanidagi fermer xo'jaliklarining ko'rsatkichidan 8,2 foiz yuqoridir.

Quyidagi 9-jadvalda Mash'al ildam sardori fermer xo'jaligida bug'doy yetishtirishning iqtisodiy samaradorligi ko'rsatilgan.

Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida fermer xo'jalinining iqtisodiy samaradorligi bir nechta ko'rsatkichlar yordamida aniqlanadi. Buning uchun yalpi mahsulot, ishlab chiqarish harajatlari va xo'jalik faoliyati natijasida olingan foyda asos bo'ladi.

Rentabellik darajasini foydaning ishlab chiqarish harajatlariga nisbati orqali topilishini inobatga oladigan bo'lsak, ravshan bo'ladiki, foydaning darjasini yuqori va harajatlarning nisbatan past darajada bo'lishi talab etiladi. Mazkur fermer xo'jaligi oxirgi yillarda bug'doy yetishtirish bo'yicha ham bir talay ishlar olib borilmoqda. Bug'doyning ekin maydonlariga mos navlari tanlanib, hosildorlikni oshirishga harakat qilinmoqda. Shunga qaramay fermer xo'jaligida harajatlarni past darajada bo'lishi talab etilmoqda.

Bug'doy yetishtirish bo'yicha ham xo'jalikning samaradorligi talab darajasidan pastdir. Buni samaradorlikning asosiy yakunlovchi ko'rsatkichi bo'lган rentabellik darajasini bor yo'g'i 42 foizni tashkil etishi buni isbotlab turibdi. Bu esa fermer xo'jalinining umumiy iqtisodiy ko'rastkichlariga ta'sir etayotganini ko'rsatmoqda.

Xo'jalikda iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo'lida olib borilayotgan tadbirlar natijasida samaradorlikning asosiy ko'rsatkichi bo'lган rentabellik darjasini 38,6 foizdan 42 foizga ko'tarilgan. 2013 yilga nisbatan oladigan bo'lsak

bu ko'rsatgich 3,4 foizga ortmoqda. Lekin, fermer xo'jaligi bug'doy yetishtirish bo'yicha to'la imkoniyatlardan foydalanishi, jumladan zamonaviy agrotexnika usullarini qo'llashi va hosildorlikni kamida 55 foiz rentabellikka erishishi chora-tadbirlarini ko'rishi lozim.

10-jadval

Oltinko'l tumanidagi "Mash'al ildam sardori" fermer xo'jaligida bug'doy yetishtirish harajatlari va ularning tarkibi

Nº	Harajatlар тuri	2013	%	2014	%	2015	%
1	Moddiy harajatlar	38253,1	76,2	44745,6	77,1	53191,1	77,1
	a) urug'lik	6777,1	13,5	7834,8	13,5	9313,6	13,5
	b) o'g'itlar	13654,6	27,2	15959,8	27,5	18765,2	27,2
	v) Yo.M.M	6275,1	12,5	7138,4	12,3	8416,7	12,2
	g) ish va xizmatlar	8534,2	17	9982,2	17,2	11728,3	17
	d) boshqa moddiy harajatlar	3012,1	6	3830,4	6,6	4967,3	7,2
2	Mehnat haqi harajatlari	6224,9	12,4	7138,4	12,3	8278,8	12
	Ijtimoiy ajratmalar	1556,2	3,1	1784,6	3,1	1241,8	1,8
4.	Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni eskirishi	1907,6	3,8	2031,3	3,5	2414,6	3,5
5	Boshqa harajatlar	2259,0	4,5	2321,4	4	3863,4	5,6
	jami	50200,9	100	58035,8	100,0	68989,7	100,0

Manba: "Mash'al ildam sardori" fermer xo'jaligi ma'lumotlari

Urug'lik uchun harajatlari 2013 yilda 6777,1 ming so'm, 2014 yilda 9313,6 ming so'mni tashkil qilib, mos davrlardagi umumiylar harajatlarda 13,5 foizni tashkil qilgan.

11-jadvalda “Mash’al ildam sardori” fermer xo’jaligi Oltinko’l tumanidagi fermer xo’jaligi bilan bug’doy yetishtirishning solishtirma iqtisodiy ko’rsatkichlari berilgan.

Jadval ko’rsatkichlaridan ko’rinib turibdiki, fermer xo’jaligida barcha ko’rsatkichlar Oltinko’l tumanidagi fermer xo’jaliklariga qaraganda yuqori.

11-jadval

Oltinko’l tumanidagi “Mash’al ildam sardori” fermer xo’jaligini Izboskan tumani bilan bug’doy yetishtirishning solishtirma iqtisodiy ko’rsatkichlari. (2015 y.)

Nº	Ko’rsatkichlar	O’lchov birligi	Oltinko’l tumani	"Mash’al ildam sardori" fermer xo’jaligida	Farqi %
1	Ekin maydoni	ga.	4322	27,9	X
2	Hosildorlik	s\ga	72,4	75,0	120,4
3	Yalpi hosil	sentner	312912,8	2092,5	X
4	Ishlab chiqarish harajatlari	ming so’m	1032122,4	68989,7	X
5	Shundan: ish haqi	ming so’m	1032612	8278,8	X
6	1 sentner bugdoyni tannarxi	so’m	33000	32970	111,5
7	1 sentner bugdoyni sotish baxosi	so’m	46000	46820	115,2
8	Yalpi mahsulot	ming so’m	14393989	97970,9	X
9	Foyda	ming so’m	4067866,4	28981,1	X
10	1 ga hisobiga: harajatlar	ming so’m	2389,2	2472,8	134,2
11	a) yalpi mahsulot	ming so’m	3330,4	3511,5	138,7
12	b) foyda	ming so’m	941,2	1038,8	150,9
13	Rentabellik	%	39,4	42,0	2,61

Manba: “Mash’al ildam sardori” fermer xo’jaligi ma’lumotlari

Bu holat rentabellikda o'z aksini to'la topgan, ya'ni fermer xo'jaligini erishilgan rentabelligi Oltinko'l tumanidagi fermer xo'jaligining ko'rsatkichidan 2,6 foizga yuqori. YA'ni Oltinko'l tumanidagi fermer xo'jaligining ko'rsatkichi 39,4 foiz, Oltinko'l tumanidagi "Mash'al ildam sardori" fermer xo'jaligida rentabellik 42 foizni tashkil etadi.

Mash'al ildam sardori fermer xo'jaligida bug'doy yetishtirish bo'yicha iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo'lida olib borilayotgan tadbirlar natijasida samaradorlikning asosiy ko'rsatkichi bo'lgan rentabellik darajasi 2015 yilda 42 foizga ko'tarilgan. Bu mamlakatimiz hukumati tomonidan fermer xo'jaliklari faoliyatini qo'llab-quvatlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlarning natijasi sifatida qaralib, fermer xo'jaliklari rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Lekin, fermer xo'jaligi bug'doy yetishtirish bo'yicha to'la imkoniyatlardan foydalanishi, jumladan zamonaviy agrotexnika usullarini qo'llashi va hosildorlikni kamida 55 foiz rentabellikka erishishi chora-tadbirlarini ko'rishi lozim.

12-jadvalda Mash'al ildam sardori fermer xo'jaligining suvdan foydalanish ko'rsatkichlari aks ettirilgan. Ma'lumki suv resurslarilari samarali foydalanish yetishtirilayotgan mahsulot hosildorligini oshirisha to'g'rida-to'g'ri ta'sir etadi. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, so'ngi uch yilda paxta va bug'doy ekin maydonlari o'zgarmagan. 31,2 hektar paxta maydoniga belgilangan limitdagi suv miqdori 113,9 ming m³ ni tashkil etgan. Lekin haqiqatda olingan suv miqdori limitdan bir kam va 87,9 va 89,9 foizni tashkil etmoqda. SHuni ta'kidlash lozimki 1 hektar paxta maydonini sug'orish uchun xo'jalikka 3,65 ming m³ suv miqdori ajratilgan, bunga sabab urug'lik chigit plenka ostiga ekilishidadir. Demak chigitni plenka ostiga ekish natijasida suv sarfini deyarli ikki barobarga kamaytirishga erishishimiz mumkin ekan.

12-jadval

Oltinko'l tumanidagi "Mash'al ildam sardori" fermer xo'jaligida suv resurslaridan foydalanish ko'rsatkichlari

Nº	Ko'rsatkichlar nomi	O'lchov birligi	2013 y.	2014 y.	2015 y.	2015 da 2013 ga nisbatan
1	Paxta maydoni	ga	31,2	31,2	31,2	100,0
2	Jami paxta maydoni hisobiga:					
	- limitdagi suv,	ming m ³	113,9	113,9	113,9	100,0
	- haqiqatda olingan suv	ming m ³	99,8	98,0	102,3	102,5
3	Haqiqatda limitdagiga nisbatan foizda	%	87,7	86,0	89,9	x
4	Bug'doy maydoni	ga	27,9	27,9	27,9	100,0
5	Jami bug'doy maydoni hisobiga:					
	- limitdagi suv,	ming m ³	118,6	118,6	118,6	100,0
	- haqiqatda olingan suv	ming m ³	117,2	116,6	118,0	100,7
6	Haqiqatda limitdagiga nisbatan foizda	%	98,8	98,4	99,5	x
7	Jami ekin maydoni	ga	59,1	59,1	59,1	100,0
8	Xo'jalik bo'yicha:					
	- limitdagi suv,	ming m ³	232,5	232,5	232,5	100,0
	- haqiqatda olingan suv	ming m ³	217,0	214,6	220,4	101,5
9	Haqiqatda limitdagiga nisbatan foizda	%	93,4	92,3	94,8	x

Manba: "Zilol mash'al suvi" SIU, " "Mash'al ildam sardori" fermer xo'jaligi ma'lumotlari

Xo'jalikda yetishtirilayotgan bug'doy uchun limitda ajratilgan suv miqdori 118,6 ming m³ ni tashkil etgan va haqiqatda olingan suv miqdori limitdagiga ancha yaqin va 98,8-99,5 foizni tashkil etmoqda. Bunga sabab bug'doyni sug'orish davrlari bahor oylariga to'g'ri keladi. Albatta, bu davrda suv bilan ta'minlanganlik

darajasi yuqori bo'ladi.

13-jadval

Oltinko'l tumanidagi "Mash'al ildam sardori" fermer xo'jaligida suvdan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlari

№	Ko'rsatkichlar nomi va o'lchov birligi	Yillar			2015 yida 2013 yilga nisbatan foizda, %
		2013	2014	2015	
1	Yalpi mahsulot, ming so'm	167698	190391	220558	131,5
	shundan:-paxta yetishtirishda	98122	109291	122587	124,9
	-bug'doy yetishtirishda	69576	81101	97971	140,8
2	Foya - jami, ming so'm	34285	39334	47964	139,9
	shundan:-paxta yetishtirishda	14911	16269	18982	131,5
	-bug'doy yetishtirishda	19375	23065	28981	149,6
3	Xo'jalikka haqiqatda olingan suv, ming m ³	217,0	214,6	220,4	101,5
	shundan: -paxta bo'yicha	99,8	98,0	102,3	102,5
	-bug'doy bo'yicha	117,2	116,6	118,0	100,7
4	1000 m ³ suv hisobiga olingan yalpi mahsulot, so'm: - jami	772731	887233	1000928	129,5
	- paxta bo'yicha	982795	1115575	1197884	121,9
	- bug'doy bo'yicha	593751	695416	830142	139,8
5	1000 m ³ suv hisobiga olingan foya, so'm: - jami	157982	183298	217667	137,8
	- paxta bo'yicha	149344	166063	185491	124,2
	- bug'doy bo'yicha	165342	197776	245567	148,5

Manba: "Zilol mash'al suvi" SIU, " "Mash'al ildam sardori" fermer xo'jaligi ma'lumotlari

13-jadvalda Oltinko'l tumanidagi "Mash'al ildam sardori" fermer xo'jaligida suvdan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlari aks ettirilgan. Jadval

ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, taxlil etilayotgan davrda fermer xo'jaligida suvdan foydalanish samaradorlik ko'rsatkichlari yaxshilangan. Fermer xo'jaligida so'ngi yillarda mahsulot yetishtirish uchun olinayotgan suv miqdori 217 ming m³ dan 220,4 ming m³ ga ortgan. Tahlil etilayotgan davrda 1000 m³ hisobiga olingan mahsulot paxtachilikda 121,9 foizga, g'allachilikda 139,8 foizga ortgan. Fermer xo'jaligida suvdan samarali foydalanish bo'yicha resurst yejamkor texnologiyalarni qo'llab, suv resurslaridan foydalanish samaradorligini yanada oshirish lozim.

III BOB. OLTINKO'L TUMANIDAGI “MASH’AL ILDAM SARDORI” FERMER XO’JALIGIDA SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO’LLARI.

3.1. Oltinko'l tumanidagi “Mash’al ildam sardori” fermer xo’jaligida mahalliy o’g’it solish texnologiyalarining g’o’za hosildorligiga ta’siri

Mahalliy o’g’itlarni tuproqqa va qishloq xo’jalik ekinlariga ta’siri yuqori. SHunday ekan mahalliy o’g’itlarni tuproqqa doimiy ravishda kiritib borish zarur . Mahalliy o’g’itlarni tuproqqa solishda mahalliy o’g’it turiga va holatiga qarab turli xil usullardan foydalaniadi. Quyida biz shulardan ayrimlarini keltiramiz.

Birinchi usul bu yig’ilgan mahalliy o’g’itlarni shudgor ostiga solishdir. Bunda xayvonni yangi chiqindilari to’g’ridan-to’g’ri dalaga chiqariladi. Bu usulda juda ko’p avzalliklari bor, sababi buni tarkibidagi ozuqa elementlaridan azot to’laligicha saqlanib qoladi. Bundan tashqari go’ng chirishi natijasida tuproqdagi mineral holda saqlanib qolgan ozuqa elementlarini ham parchalanib o’simlikka o’tishini yaxshilaydi. Tuproqni qizishiga olib keladi. Agar biroz saqlanib qolsa, uning tarkibidagi azot havoga uchib chiqib ketadi. Go’ngni dalaga chiqarishda yana shu narsaga etibor berish lozimki, go’nglar faqat xaydov ostiga chiqarilgani ma’qul. Chunki, uning tarkibida begona o’t urug’lariva kasallik tarqatuvchi mikroorganizmlar ham bo’lib, dalani begona o’t bosishiga , o’simliklarni o’sib rivojlanishiga to’sqinlik qilib , ular uchun zarar keltiradi. Bu texnologiyani qisqacha agrotexnikasi quyidagicha, yig’ib olingan mahalliy o’gitlar ya’ni chorva mollarining yangi chiqindilari yuklagich mashinalarda tilejkalarga yuklanadi va o’g’it solinadigan dalaga olib kelinadi. Olib kelingan o’g’itlar o’g’it solish mashinalari sochuvchi aravaga (ROU-6) yuklash, o’g’itni dalaga olib borib sochish, uni haydash orqali tuproqqa aralashtirish.Bu texnologiyaning kamchiligi shundan iboratki, o’g’itlar chirimaganligi sababli uning tarkibidagi o’simlik urug’lari va zararli mikroorganizmlar tuproqqa tushgandan keyin tuproqni va ekiladigan madaniy o’simlikni zararlaydi, o’g’it tuproqning haydov qatlamiga aralashib ketganligi sababli ekilgan ekinni tomir sohasidan tashqarisida qolgan

o'g'itdan ekin samarali foydalana olmaydi.

Ikkinchi usul ekinlarni sharbat suvi bilan sug'orish. Bu usulda odam, xayvon va tovuq chiqindilari suyuq holatda sug'orish bilan beriladi. Buning uchun har bir ekin dalasining besh gektar yeri uchun bitta xandaq kovlanadi. Bu xandaqlar kattaligi eniga 2 m, uzunligiga 4 m, chuqurligi esa o'qariqni chuqurligidan keyin kamida 0.7 metr bo'lishi kerak. Sug'orishdan oldin xandaq tayyorlanib, bunda o'qariqni chuqurligi barobarigacha jija (suyuq go'ng) solib qo'yiladi. SHu jija ustidan suv oqiziladi, lekin go'ng oqizilmaydi. Qachonki suv quyib bo'lingach, suvni tashlashdan oldin xandaqdagi go'ng kovlanadi. Suv bilan birqalikda suyuq go'ng egatga bir tekislikda oqib boradi. Suv oqizilgan egatlar oxiriga yetib borganida birin ketin to'sib boriladi. CHunki suv oqib chiqib ketsa go'ng ham oqib chiqib ketadi. Suv qo'yib bo'lingach go'ngni oqizishdan maqsad, agar oldin oqissak tuproqda nam kam bo'lганligi sababli suvni yurishi sekinlashadi. Bundan tashqari go'ng bilan suvni yurishi qiyinlashadi. Suv quyib bo'lганida esa tuproq suvga to'yingani bois suvni va go'ngni yurishi osonlashadi. YAna shuni ta'kidlab o'tish joizki, bunday usulda go'ng egatni boshidan oxirigacha bir tekisda taqsimlanadi. Keyingi vaqtarda sharbat suvi oqizishda qurigan go'nglardan va kompostlardan ham ko'proq foydalanilmoqda. Bulardan foydalanilganda, yuqoridagilardan tashqari go'nglarni erib olishiga ham etibor berish lozim. Aks holda, egatlar go'nglar bilan to'lib, suvlarni oqishini qiyinlashtiradi yoki o'simliklarni ko'llab suv ichishiga olib keladi va yana suvdagi konsentratsiyani pasayishiga olib keladi. Buning uchun go'nglar sug'orishdan ancha oldin bo'ktirib ivitib qo'yish lozim, bunda go'ng erib turadi. Bu texnologiyani ham kamchiliklari bor bular mahalliy o'g'itlar tuproq bilan aralashtirilmaganligi yoki ko'milmaganligi sababli o'g'it tarkibidagi azotli moddalar xavoga uchib ketadi, mahalliy o'g'itlar ariqni ichida bo'lганligi uchun o'simmlik ulardan juda ham kam foydalananadi. Bu texnologiyada ham mahalliy o'g'itlar ko'pincha yangiligi bo'yicha solinganligi sababli o'g'it tarkibidagi begona o't urug'lari va zararli mikroorganizmlar tuproqqa tushub dalani begona o't bosishiga va har xil

kasalliklarni ko'payishiga olib keladi.

O'g'itni qator oralariga solish texnologiyasi quyidagi jarayonlarni o'z ichiga oladi: chirigan o'g'itni quritish, maydalash, elash, elangan o'g'itni kultivator bunkeriga yuklash ko'chatlarga bir xilda taqsimlanadi, va o'g'itni tomir soxasiga solish. Bu texnologiyada o'g'it ekining ildiz soxasiga berilganligi uchun u o'g'itdan to'laroq oziqlanadi. Bu texnologiya o'z ichiga quyidagi ishlarni oladi. Mahalliy o'g'itlarni yig'ish va kompost qilish so'ngra tilechkalarga yuklab dalaga olib kelish va kultivator yordamida dalaga solish. Bu texnologiyada yuqoridagi texnologiyalardagi kamchiliklar bartaraf etilgan. Chunki bu texnologiyada mahalliy o'g'itlardan avval kompostlar tayyorlanadi. Bu jarayonda mahalliy o'g'itlarni chirish jarayoni ketib uni tarkibidagi begona o't urug'lari va zararli mikroorganizmlar nobud bo'ladi. Va solish jarayonida mahalliy o'g'itlar bevosita o'simlik ildizlari joylashgan qatlamga solinadi va o'simlik undan tezroq va samaraliroq foydalanadi.

YUqoridagi tahlillarga asoslanib shuni aytish mumkinki, o'g'itlarni qator oralariga solish texnologiyasi maqbul texnologiyadir. Bu texnologiyada chirigan o'g'itni quritish jarayoni quyosh energiyasidan foydalanib bajariladi. Maydalash jarayonini esa kurak orqasi bilan urish yoki traktor baloni bilan ezish orqali amalga oshirilmoqda. Qator oralariga solish texnologiyani keng miqiyosida amalga tadbiq etilmayotganiga sabab shuki, o'g'itni elash jarayonini mexanizatsiyalashmaganidadir. o'g'itlarni qator oralariga kultivator o'g'itlagichlarida solinadi. Buning uchun o'g'itni sifatli qilib elash ya'ni maxsus fraksiyalarga keltirish talab etiladi. Aks holda o'g'itlash aggregatining ishchi tirkishlariga tiqilib qolib aggregatning ish unimini kamaytirib yuboradi. Fermerlar o'g'itni qator olralariga solishni xoxlasalarda bu jarayon qiyin kechmoqda. Bugungi kunda oddiy setkani qiya o'rnatib o'g'it elanmoqda, bunda mehnat unimdonligi juda past, o'g'it esa sifatsiz elanmoqda. Qiya elakning teshigini o'lchamini kattalashtirish bilan uning ish unimi oshsada yirikroq aralashmalar elakdan o'tishi evaziga o'g'it sifati yomonlashadi.

Elakni ish unimini kamaytirmagan holda o'g'itni sifatli qilib elash uchun setkaga harakat berish lozim bo'ladi. SHu sababdan mahalliy o'g'itni sifatli elaydigan yuqori unumli ixcham elash qurulmasini yaratish dolizarb vazifadir. o'g'itni elashni mexanizatsiyalashga urinishlar bo'lgan, qishloq xo'jaligi mutaxassislari o'z imkoniyatlari darajasida mavjud texnik vositalaridan foydalanib elakka tebranma harakat berishgan. Bunday qurilmada inertsiya kuchlari paydo bo'lib qurilmani tez ishdan chiqishiga sabab bo'lgan. SHu bois qurilma uzoq ishlay olmagan. Platformali elakda ramkaga setka o'rnatilgan bo'lib, ramka platformada ilgarilanma-qaytma harakat qilib ishlaydi. Elak harakatni ekssentrik yoki shatundan oladi. Bu qurilmada ham inertsiya kuchlari paydo bo'ladi. Transporterli elak bir biriga paralel joylashgan chiviqlardan iborat bo'lib chiviqlar ikki uchidan zangjirga maxkamlangan, zanjir ekssentrik yulduzchada harakatlanib chiviqlar ustidagi o'g'itni elaydi bir yo'la ustidagi mahsulotni tashiydi. Bu elakning kamchiligi shundaki chiviqlar orasidan yassi o'g'it parchalari o'tib, elangan o'g'itning sifatini yomonlashtiradi. Juvasimon elak bir-biriga paralel qilib joylashtirilgan aylanuvchi juvalardan iborat bo'lib juvalarni orasidan mahalliy o'g'it o'tib elanadi. Bu elakning kamchiligi ham juvalar orasidan o'lchamlari yirik bo'lgan yassi o'g'itlarni o'tib ketishidir. Silidrsimon elak gorizontga nisbatan burchak ostida joylashgan aylanib turuvchi silindr shaklidagi elakdan iborat. Elak ichiga o'g'it tushaganda o'g'it silindr ichida harakatlanib elanadi. Bu elak o'g'itni sifatli elash bilan birga ish unumi ham yuqori, silidr ichida o'g'it dumalanib harakatlanganligi sababli o'g'itni odindan maydalashga ehtiyoj kamayadi.

Silidrsimon mahalliy o'g'it elash qurilmasi, tuzilishi, ishlashi, umumiylar harakteristikisi quyidagicha.

Qurilma to'rtta gildirakka o'rnatilgan ramadan iborat bo'lib ramaga silidrsimon elak o'rnatilgan. Elak harakatni gidromotordan oladi. Gidromotor ishlashi uchun yuqori bosim moyni yuklagich (pogruzchik) ning taqsimlagichidan yuqori bosim shlankalari orqali oladi. Qurilma quyidagicha ishlaydi: yuklagich kovshi1 o'g'itni qiya tushirgich dozator 2 ga yuklaydi u o'g'itni me'yorlab

silindrmsimon elak 2 ga tashlaydi.O'g'it elakda vintsimon harakat qilib elanadi.Elangan o'g'it elakning tagiga yirik fraksiyalar esa elak tashqarisiga chiqib ketadi.

Paxta yetishtirish agrotexnikasi - tajriba dalasini o'g'itlash bunda tajriba dalasidagi xaydov ostiga mahalliy o'g'itlar solish variantlariga mahalliy o'g'itlar solinadi, qolgan variantlarga esa solinmaydi, bunda mahalliy o'g'itlar bilan birga fosforli va kaliyli o'g'itlarni 75 % zi ham solinadi. Tajriba uchastkasiga o'g'itlar solingach maydon shudgorlanadi. Kuzgi shudgorlash ikki yarusli pluglarda PD-3-35 plugi yordamida amalga oshirildi. SHudgorlashdan oldin tajriba maydoniga yerni yumshatish maqsadida yengil suv berildi. yer yetilishi bilan 35 sm chuqurlikda shudgor qilindi.

Chigitni ekishga tayyorlash. ekiladigan chigit quyidagi talablarga javob berishi kerak: unuvchanligi birinchi klass chigitlarda 90-100 %, 2 klasslarda 90-94% , 3 klasslarda 85-93 % dan kam bo'lmasligi kerak chigit namligi 9 % dan yuqori bo'lmasligi kerak. Yosh nihollarni turli xil kasallikkardan ximoya qilish maqsadida bronatak, ximoya, g'o'zafen, PAV-61 preparatlari bilan va formalin bilan dorilanadi. Bu ish chigit ekishdan kamida 2 oy bajarilishi kerak. CHunki dorilarni chigitni ichki kavatlariga singishi uchun vaqt kerak bo'ladi.

Baronalash- erta baxorda tuproqdagi namni saqlash maqsadida shudgor barona qilinadi.bunda qish va baxorgi yog'inlar vaqtida tuproqda namlik to'planadi va kapilyar bo'shliqlar orqali yuqoriga ko'tariladi. Borana qilishdan maqsad yig'ilgan namlikni tuproqda saqlab qolishdan iborat. Bunda zig-zag boranadan foydalaniladiva tuproqning 6-8 sm li qatlqidagi kapilyar bo'shliqlar bir-biridan uzib qo'yiladi. Natijada tuproqning pastki qatlamlaridan yuqori qatlamlariga harakatlanayotgan namlik tuproqning xaydov qatlamida to'planadi.

Erni molalash yerni molalashdan ko'zlangan asosiy maqsad chigit ekish paytida chigit ekuvchi seyalkalarni bir xil chuqurlikka urug' ekishini taminlash. Mola sifatila og'ir jismlardan foydalaniladi.

Pushta olish –bu ish TTZ-80 traktoriga KRX-3.6 kultivatorini ko'shib

bajariladi.

Chigit ekish bu ish g'o'za yetishtirish agrotexnikasida asosiy tadbirlardan biri bo'lib chigitni qanchalik sifatli va vaqtida ekish olinadigan hosilni sifatli va ko'p bo'lishini taminlaydi. Chigit mo'tadil muddatlarda ekilganda ertagi, tekis va sog'lom ko'chatlar olinadi. Bunga yumshoq, namva harorati yetarli bo'lган tuproqqa ekilgandagina erishiladi. Chigitni muddatidan oldin yoki keyin ekilganda ham kutilgan natijaga erishilmaydi. eng qulay mo'tadil muddat bo'lib tuproq harorati 10 sm li chuqurlikda 13-14 °S ga yetganida va asta sekin ko'tarilish kuzatilganda hisoblanadi. 2009 yilgi muddatda aprel oyining 2- dekadasining oxiri 3-dekadasining boshida o'rtacha xavo harorati 15 °S dan yuqori bo'lган shu sababli biz ekish muddatini 21 apralda o'tkazdik. Urug'ni erta va bir tekis undirib olish uchun ekish chuqurligiga ahamiyat berish kerak. CHigit ekishning maqbul chuqurligi 4-5 sm chuqurlik hisoblanadi. Ekish SXU-4 seyalkalarida o'tkazildi. Ekish o'tkazilgandan so'ng 05.05 da fenologik kuzatishlar olib borildi va o'rtacha 45 % ko'chat unib chiqqani aniqlandi. 08.05 da o'tkazilgan fenologik kuzatishlarda esa ko'chatlar 90 % unib chiqqani hisoblandi.

Chigit to'liq undirib olingan maydonlarda darxol g'o'zani yaganalashga kirishiladi. YAgana kechiktirilsa, bo'lg'usi hosilga putur yetadi. Chunki o'simlik yiriklashsa ildiz jaroxatlanadi, yaganalashda tuproqdan 6-10 kg azot, 1-2 kg fosfor, 4-6 kg kaliy elementi olib ketiladi(100 tup hisobida) yaganalashda ekish sxemasiga va tuproq iqlim sharoitlariga ko'ra 100-110 ming tup ko'chat qoldirib yagana qilinadi.

Qator oralariga ishlov berish qator oralig'iga ishlov berishdan maqsad begona o'tlarni yoqotish va tuproq yuzasini yumshoq saqlashdir. Tuproq yuzasi yumshatilganda namning parchalanishi kamayadi, zararli tuzlar yuzaga ko'tarilmaydi, xavo almashinuvi yaxshilanadi , tuproq suv o'tkazuvchanligi ortadi.

Qator oralariga ishlov berishni nihol to'liq unub chiqib, qatori bilinishi bilanoq boshamoq kerak. Chunki bu vaqtida begona o'tlar ildiz otmagan, g'o'za ildiz sistemasi ham nozik, ildiz chirish kaslligiga chalinib qolish xafi bo'ladi. Qator

oralarini dastlabki ishlashni kechiktirish paxta dalalarini o't bosib ketishiga va tuproq yuza qatlaminng qurub qolishiga olib keladi. Bu esa g'o'zaning o'sishi va rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va paxta hosili 20-25 % gacha kamayib ketishiga olib keladi.

Er osti suvi chuqur joylashgan yerlarda g'o'zani birinchi suvgacha bir marta, yer osti suvlari yuza joylashgan yerlarda esa ikki marta kultivatsiya qilinadi. Keyingi kultivatsiyalar esa sug'orish soni bilan bog'liq bo'lib, tuproq yetilishi bilan o'tkaziladi. Jami 4-5 marta ba'zan 6-7 martagacha kultivatsiya qilinadi. Kultivatsiya o'tkazish chuqurligiga etibor berish kerak. Me'yоридан ортиқ chuqurlikda o'tkazilganda g'o'zaning ildiz sistemasi jaroxatlanib, hosilga zarar yetishi mumkin.

Agar birinchi kultivatsiya o'tkazilayotganida begona o'tlar uchrasa, ikkinchi organlardan pichoq va g'ozpanja birgalikda ishlatiladi. Begona o'tdan toza maydonlarda faqat yumshatuvchi ishchi organlarini o'rnatish kifoya.

G'o'zaning dastlabki rivojlanish davrida chetki ishchi organlari 6-8 sm, o'rtadagisi esa 10-12 sm chuqurlikda yumshatadi. Ximoya zona 10-12 sm bo'lib , bu zona o'z navbatida kultivatorda UROR ishchi organi o'rnatilib, o'simlikdan 3-5 sm masofada yurgizish bilan yumshatiladi. Keyingi kultivatsiyalarda, ayniqsa suvdan keyin, qatlamlab yumshatiladigan KKO ishchi organlari o'rnatiladi. Bular naralniklar bo'lib, chetki organlar 8-10 sm chuqurlikda, o'rtadagi organlar esa 12-14-16 sm chuqurlikda ishlaydi . ximoya zonasi esa 15-16 sm gacha oshiriladi.

G'o'zani sug'orish – yuqori va sifatli hosil yetishtirishda suvning roli benixoyadir. Paxta maydonida suvning umumiy sarfi va transpratsyasining xajmi atrof-muxit sharoitga, agrotexnika darajasiga va dalaga quyiladigan suvning miqdoriga qarab keskin o'zgaradi.

Paxtachilikda g'o'zani sug'orish rejimi boshqarib turiladi. G'o'zaning suvga bo'lган talabini qondirish uchun ildiz joylashgan qatlamda tuproq namligi dala nam sig'imiga nisbatan 65-70 % dan pastga tushmasligi kerak. G'o'zani sug'orish gullaguncha, gulash va pishish davrida olib boriladi va davrlar bo'yicha

bo'linganligi uchun ham shartli ravishda sug'orish sxemasi deb yuritiladi.

Sug'orish sxemalari tuproq turi, mexanik tarkibi, yer osti suvining chuqur yoki yuza joylashganligiga qarab har xil bo'lishi mumkin.

G'o'zani butun o'suv davrida mintaqalarga qarab gidromodul rayonlar e'tiborga olinib, 2 martadan 12 martagacha sug'orish o'tkaziladi.

G'o'zani sug'orish me'yori, yani bir marta sug'orish uchun beriladigan suv miqdori va mavso'miy sug'orish me'yori, yani butun o'suv davrida beriladigan suv miqdoriga iqlim sharoiti, tuproq unumdorligi va uning fizik suv xususiyatlari, yer osti suvining chuqurligi, agrotexnikadarjasи va nav ta'sir ko'rsatadi. Umuman, mavso'miy sug'orish normasi gektariga 2000-8000 m³ gacha bo'lishi mumkin.

G'o'zaning suvgaga kelganini uning tashqi alomatlariga qarab belgilanadi: gullashgacha barglari to'q yashil rangga kirib, so'linqiraydi, kunduzi soat 14-15 larda ustki bargni bukkanda o'rta tomiri sinmasa, sug'orish zarur yoki g'o'za gullaganda gulningyuqoriga ko'tarilib ketishi kuzatilganda uning chanqaganligini bildiradi.

Bundan tashqari tuproq namligini aniqlash, xujayraning so'lish kuchi, bo'g'in oralarining qisqa-uzunligiga qarab belgilanish kabi usullar ham qo'llaniladi.

Sug'orishning juda ko'p usullari bo'lib, shundan ko'p tarqalgani jo'yaklab sug'orishdir. Egatlab sug'orishda suv bevosita egatga oqiziladi. Biz tajriba olib borayotgan joyning tuproq- iqlim sharoitlaridan kelib chiqib sug'orishlarni besh marta o'tkazdik va sug'orishlar mos ravishda 500-600,600-700,800-900,600-700,500-600 m³ qilib belgilandi.

O'g'itlash tizimi organik va mineral o'g'itlarni qo'llashni o'z ichiga oladi. O'g'itlarni qo'llash me'yori tuproqning tipiga, o'simlikning turiga, o'g'itning tipiga va boshqalarga qarab o'zgartirib boriladi. Bir tonna paxta xom-ashyosi va unga mos vegetativ massani to'plash uchun g'o'za tuproqdan o'rta hisobda 50-60 kg azot, 15-20 kg fosfor va 50-60 kg kaliyni o'zlashtiradi. G'o'za yetishtiriladigan maydondan oziq moddalarning chiqib ketishi hosil miqdori va tarkibiga bog'liqdir,

hosildorlik yuqori (45-50 s/ga) bo'lganda, g'o'zaning hosil qismlari o'suv organlariga nisbatan kuchliroq rivojlanadi va tabiiyki, bunda bir tonna xomashyo uchun nisbatan kamroq miqdorda oziq moddalar sarflanadi. Nihollar unub chiqqandan shonalash davrigacha g'o'za juda sekin rivojlanib, organik qismining atiga 4-5 % ti shakllanadi. SHonalashdan to gullashgacha o'simlik quruq massasining 25-30% zi shakllanadi, vegetativ massaning jadal to'planish sur'ati ko'saklarning ochilish davrigacha davom etadi.

G'o'zaning oziq moddalarga bo'lgan talabi bevosita quruq massaning to'planish sur'ati bilan bog'liq, lekin bu jarayon bir me'yorda kechmaydi. Boshqa ekin turlari kabi g'o'za ham o'suv davrining boshlarida fosfor va azotga kuchli ehtiyoj sezadi. Dala sharoitlarida olib borilgan ko'pgina tadqiqotlardan ma'lumki, tipik bo'z yerlarda g'o'za azotli moddalarning 48-68 %, fosforli moddalarning 14-18 % va kaliyning 48-55 % bilan oziqlanadi. Lekin ishlab chiqarish sharoitida oziq moddalardan foydalanish koeffisenti dala tajribalariga nisbatan o'rta hisobda 11.2-14.8 % pastdir.

O'g'it meyorini bo'laklab qo'llashning samarasi yuqori bo'ladi. Agar azot o'g'itining qo'llash meyori katta bo'lsa , uning 25 % ekish oldidan yerni tayyorlashda, 75% esa oziqlantirishlarda beriladi

Fosforning samaradorligi uning yillik meyorining 60-75 % shudgor oldidanberilgani yuqori bo'ladi, qolgan qismi esa ekish bilan birga va gullash davridagi oziqlantirishda beriladi.azot va kaliyning nisbati 1:0.5 bo'lgani ma'qul. Kaliy me'yorining 75 % zi shudgor ostiga berilsa, qolgan qismini shonalash davrida oziqlantirishdaberish tavsiya etiladi.

3.2. Oltinko'l tumanidagi "Mash'al ildam sardori" fermer xo'jaligida suvdan samarali foydalanishni tashkil etish yo'llari

Suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanishning asosini yetkazib berilayotgan suvgaga iste'molchilarining qadrli munosabatda bo'lishi tashkil qiladi. Bunda suv iste'molchilarining suv yetkazib beruvchi tashkilotlar bilan hamkorlikda ish olib borishlari va suvdan foydalanishni to'g'ri yo'lga qo'yishlari muhim ahamiyatga ega.

Ekin dalalarini sug'orishga ishlatiladigan suvdan foydalanishni oqilona bo'lishi uchun birinchi galda, fermer o'z Suv ist'emolchilarini uyushmalari (SIU) bilan suv yetkazib berish to'g'risidagi shartnomaviy munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yishi va uning shartlariga to'liq amal qilishi hamda suv yetkazib berish bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun haqni o'z vaqtida to'lab borishi lozim.

Suv yetkazib berishni to'g'ri tashkil etilishi uchun esa har bir Suv ist'emolchilarini uyushmasi o'z tasarrufidagi sug'oriladigan maydonlar uchun suvdan foydalanishning aniq rejalarini ishlab chiqqan bo'lishi lozim. SHuningdek, uyushma va fermerlar o'rtaisdagi suv oldi-berdisi hisob-kitobini to'g'ri yo'lga qo'yishi zarur. Buning uchun avvalo uyushma va fermerlarning suv olish qulqlari suv oqimini rostlash va o'lchash inshootlari bilan to'liq jihozlangan bo'lishi shart.

SHu o'rinda aholi tomorqalarini sug'orish uchun olinadigan suvlar ham nazoratsiz qoldirilmasligi uchun har bir furqarolar yig'lnlari SIU bilan xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnoma tuzishlari va mahalla miroblarini tayinlashlari lozim. Mahalla miroblari aholi tomorqalariga olinadigan suvni navbat bilan yetkazib berishni tashkil qilib, o'zboshimchalik bilan suv ochib olish hollarining oldini oladi hamda suvdan samarasiz foydalanishni bartarff qiladi.

Har bir suv iste'molchisi (xususan fermerlar) sug'orishdan besh kun oldin SIUga suv olish uchun yozma talabnama berishi lozim. Suv iste'molchilarini

o’rtasida suvdan navbatma-navbat foydalanishni yo’lga qo’yish suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanishning eng asosiy shartlaridan sanaladi.

SIU hududida kanaldan olinayotgan suvni kichik miqdorlarga bo’lib barchaga bir tekis tarqatib yuborilsa, suv shimalishi va bug’lanishi ko’payib, har bir gektarni sug’orish uchun sarflanayotgan suvning umumiyligi miqdori ko’payib, sug’orish vaqtini cho’zilib ketadi. Sug’orish navbat bilan o’tkazilganda esa, katta miqdordagi suv avval bir dalaga keyin boshqa dalaga beriladi. Natijada sug’orish tez amalga oshiriladi va sug’orish kanallaridagi suv isrofi 10–20, dala ariqlaridagi suv isrofi 30–35 foizgacha kamayadi. Ekin maydonlarida suv resurslaridan oqilona foydalanishni yo’lga qo’yish uchun sug’orishning suv tejovchi usullarini qo’llash talab qilinadi.

Hozirgi kun amaliyotida quyidagi suv tejovchi sug’orish usullari mavjud:


Kalta egatlar bilan sug’orish. Bu usulda egatning uzunligi (ikki o’qariq o’rtasidagi masofa) tuproq sharoitidan kelib chiqib 50–60 m qilib belgilanadi. Bunda oqovaga chiqadigan suv miqdori keskin kamayadi, egatlar butun uzunligi bo’yicha bir tekis namlanishiga erishiladi. Natijada ekin dalasiga berilayotgan suv miqdori 15–20 foizga kamayadi.

Egatlar oralatib sug’orish. Bu usulda ekin dalasiga suv egatlar orasidagi har bir ariqdan emas, balki egat oralatib, ya’ni bir ariqdan suv oqizilib, navbatdagagi ariq quruq qoldirilgan holda beriladi. Bunda tuproqdan suv bug’lanishi va tuproqqa suv sizilishi keskin kamayadi. Natijada dalani sug’orishga sarflanadigan umumiyligi suv miqdori 20–25 foizgacha kamayadi. 1-rasm.

Egatlar oralatib sug'orish

Egatlatib sug'orishdagi behuda suv miqdori

Odatiy sug'orishdagi foydalanilmagan (behuda) suv miqdori



Manba: www.ziyonet.uz

Nishabligi katta bo'lgan yerlarda egatni bir tekis namlanishiga erishish va oqova suv chiqishini kamaytirish uchun egatga avval katta suv sarfi yuboriladi, suv egatning oxiriga yetishi bilan suv sarfi keskin kamaytiriladi, ya'ni suv egatga o'zgaruvchan oqimda yuboriladi. Bunda umumiy suv berish hajmi 15–20 foizga kamayadi.

Nishabligi kichik bo'lgan sug'oriladigan yerlarda esa oqova suv chiqarmaslik uchun egat oxirini to'sib, to'silgan suvni teskari oqizib, egatlar oxirini namlash ham mumkin. Bunda umumiy suv berish hajmi 15–20 foizga kamayadi. SHunday qilib, sug'orishni sifatli bo'lishida o'q- ariqlar orasidagi masofa, egatlarning uzunligi va egatdagi suvning sarfi alohida rol o'yndaydi.

Egat uzunligini dala nishabligi va tuproqning suv shimish xususiyatiga qarab to'g'ri tanlash lozim. Agar egat uzun olinsa, suv uning oxiriga yetib borgunicha, suvning ko'p qismi egatning bosh qismida tuproqqa behudaga singib isrof bo'ladi. SHuning uchun dalaning sharoitidan kelib chiqib suvni yaxshi o'tkazadigan o'tloq va yengil qumoq tuproqlarda g'o'za qator oralig'i 60 sm bo'lgan dalalarda egatlar uzunligi 50–60, suvni sust shimadigan, og'ir tuproqli yerlarda 60–70, qator oralari 90 sm bo'lgan dalalarda esa 60–70 metrdan oshmasligi kerak.

Dalaning bir tekis namlanishi hosildorlikni yuqori bo'lishini ta'minlaydi. Egatning butun uzunligi bo'yicha tuproqning bir tekis namlanishi uchun egatga

berilayotgan suv sarfi qumloq tuproqlarda 0,7–0,8 l/s, yengil va o’rta qumoq tuproqlarda 0,3–0,4 l/s va og’ir qumoq va gilli tuproqlarda 0,1–0,2 l/s bo’lishi lozim.

Bugungi kunga kelib dalalarda notekisliklar vujudga kelmoqda.

Sabablar, 1) joyning birlamchi relfi, 2) fermerlarning har yilgi: sho’rni yuvish, yerni haydash, egatlar olish va ularni tekislash, vaqtinchalik o’q ariqlar qazish kabi amaliyotlari bo’lishi mumkin. yer sirti notekis bo’lgan sharoitlarda sug’orish suvini dala bo’ylab bir maromda yetkazib berishga harakat qilish ortiqcha suv sarflab uni isrof bo’lishiga olib keladi. Natijada sug’orish suvlari orqali tuzlar tuproq yuzasiga ko’tariladi va sizot suvlari satxi ko’tariladi. Notekis dalalarda tuz yig’ilgan joylar(tuz dog’lari) ko’zga tashlanadi. SHuningdek sug’orish jarayonida yerlarning notekisligi quyidagi salbiy ta’sirlarni keltirib chiqaradi:

 Suvning bir tekis oqishining sekinlashuvi

 Suvning dala bo’yicha notekis taqsimlanishi

 Suv shimalishi(infiltratsiya) ga suv isrof bo’lishi

 Tuproqda tuzli dog’lar yuzaga kelishi

 Dala bo’ylab o’simliklarning notekis o’sishi

 Suvni boshqarish qiyinligi

Dalalardagi notekisliklar muamosini xal etishning samarali usuli bo’lib yerlarni tekislash hisoblanadi. yerlarni tekislash suvning bir tekis tarqalishiga halal beruvchi notekisliklarni yo’qotishi mumkin Natijada bu uslub o’simliklar hosildorligini oshirish bilan birgalikda suvni tejash usullaridan foydalanishga qulay sharoit yaratadi, bu esa o’z navbatida sho’rlanish darajasini kamaytiradi.

Dalaning tekis satxi quyidagi ijobiy natijalarga olib keladi:

 Notekis sug’orish natijasida o’simliklar notekis o’sishini to’g’rilash

 Suv oqimi tezligining ortishi

 Sug’oriladigan suv miqdori kamayishi

 Egatlar uzunligini oshirish imkoniyati

Suvni boshqarish harajatlarining kamayishi

Tuproqda sho'rlangan dog'larning yo'qligi

2-rasm



Dalani tekislash

Notekis dala

1. Suv oqimi to'lqinsimon tarqaladi
2. Katta sug'oriladigan suv miqdori – xaddan ziyod sug'orish
3. Suvning notekis taqsimlanishi
4. Ekinlar notekis o'sadi

Tekislangan dala

Bir tekis suv oqimi



Manba: www.ziyonet.uz

Sug'orishni sharbat usulida olib borish suvdan samarali foydalanishda muhim rol o'ynaydi. Sharbat usuli qo'llanilganda go'ng g'o'zani oziqlantiribgina qolmay, balki mulcha vazifasini ham bajaradi. Bunda suvning bug'lanishi va tuproqqa singishi keskin kamayadi. Sharbat usulida sug'orishda xandakdan o'tayotgan suvni go'ng bilan to'liq aralashuviga alohida e'tibor qaratish lozim. Mulcha sifatida sharbatdan tashqari mavjud eski plyonkalar, qog'oz, somon yoki turli suv o'tlaridan foydalanish mumkin. Ekinlarni sug'orish uchun, noan'anaviy suv resurslaridan, shu jumladan chiqit, oqava va zovur suvlaridan foydalanish ham sug'orishga ishlatilayotgan suv miqdorini kamaytirish imkoniyatlarini yaratadi. Ayniqsa, daryo suvlarini yetkazish qiyin bo'lgan hududlarda, shuningdek, yengil va o'rtacha mexanik tarkibli tuproqli maydonlardagi g'allani sug'orishda may oyida zovurlar suvlaridan bemalol foydalanish mumkin. Bunda zovur suvini tuzlik darajasi 3 g/l. dan yuqori bo'lsa uni daryo chuchuk suvi bilan aralashtirib ishlatish tavsiya qilindi. Ekinlarni sug'orishga zovur suvlaridan foydalanish hisobiga sug'orishga ishlatiladigan

toza suvlar miqdorini 15–25 foizga kamaytirish mumkin. Ma'lumki, boshoqli don ekinlari, jumladan, kuzgi bug'doy may oyida sutli pishuv davriga kiradi. Ushbu davr kuzgi bug'doy parvarishida eng ma'suliyatli davr bo'lib, bu paytda g'allaga oziq moddalar va suvning yetarli darajada yetkazib berilishi mo'l hosil uchun mustahkam zamin yaratadi. Aks holda, suv yetmasligi oqibatida g'alla donlari puch bo'lib qolishi va hosil tarozi bosmasligi mumkin.

Shuning uchun g'allani sutli pishuv (may oyi ichida) davrida sifatli qilib sug'orishga alohida e'tibor qaratish va ma'suliyat bilan yondoshish lozim. Ushbu davrda yerning namligidan kelib chiqqan holda kuzgi bug'doyning sug'orish me'yori 700–800 m³/ga miqdorda belgilanishi lozim. Sug'orishni kechayu-kunduz, ayniqsa, kechasi tashkil qilish suvni 10 foizgacha tejash imkonini beradi hamda ekinni rivojlanishi uchun mo''tadil mikroiqlim sharoitini yaratadi.

Sug'orish davomiyligi tuproqning mexanik tarkibi, maydonning nishabligi va sug'orish me'yoriga qarab 8–12 soatni tashkil etishi lozim.

Maydonning nishabligi katta bo'lgan ayrim hududlarda esa sug'orish davomiyligi 16–18 soatdan oshmasligi kerak. Shunday qilib, ekinlarni sug'orishda suvdan foydalanish oqilona tashkil etilsa, ekin dalasini sug'orish usulini to'g'ri tanlansa va agrotexnik tadbirlar (ayniqsa, kultivatsiya va chopiq) o'z vaqtida o'tkazilsa, eng asosiysi sug'orishga mas'uliyat bilan yondoshilsa, shubhasiz, ko'zlangan hosil yetishtiriladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oltinko'1 tumanidagi Mash'al ildam sardori fermer xo'jpligida suv resurslaridan samarali foydalanishni tashkiliy-iqtisodiy asoslarini o'rganish natijasida quyidagi xulosa va takliflarni ishlab chiqdik.

1. Er qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning asosiy vositasi sifatida suv bilan birgalikda amal qiladi. Suv esa qishloq xo'jalik mahsuloti hosil bo'ladigan muqarrar omildir. yer optimal namga ega bo'lgandagina unumdar bo'ladi va yuqori hosil olinishini ta'minlaydi.

2. Sug'oruv suvidan foydalanish samaradorligini oshirish davlat ahamiyatiga molik vazifa hisoblanadi. Suv resurslaridan samarali foydalanishning mohiyati kam harajatlar bilan sug'oruv suvi birligiga eng ko'p mahsulot olishdadir.

3. Suv resurslaridan foydalanishning amaldagi darajasi, uni ko'paytirish imkoniyatlarining chegaralanganligi suv resurslaridan foydalanishni yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishni xech kechiktirib bo'lmasligini zaruriyat qilib qo'yadi.

4. "Mash'al ildam sardori" fermer xo'jaligining yerlari unumdar hisoblanib tuprog'i qora bo'z tuproq bo'lib u kimyoviy elementlarga va chirindiga ancha boydir. Ushbu yerlarda samarali texnologiyalarni qo'llash asosida paxta va bug'doy ekinlaridan yuqori hosil olish imkoniyatlari mavjud.

5. "Mash'al ildam sardori" fermer xo'jaligida suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanish maqsadida suv resurslariga qadrli munosabatda bo'lishi lozim. Bunda fermer xo'jaligining suv yetkazib beruvchi tashkilotlar bilan hamkorlikda ish olib borishi va suvdan foydalanishni to'g'ri yo'lga qo'yishi muhim ahamiyatga ega.

6. "Mash'al ildam sardori" fermer xo'jaligida ekin dalalarini sug'orishga ishlatiladigan suvdan foydalanishni oqilona bo'lishi uchun birinchi galda, Suv ist'emolchilari uyushmalari (SIU) bilan suv yetkazib berish to'g'risidagi shartnomaviy munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yishi lozim.

7. Suv yetkazib berishni to'g'ri tashkil etilishi uchun esa har bir Suv

ist'molchilari uyushmasi o'z tasarrufidagi sug'oriladigan maydonlar uchun suvdan foydalanishning aniq rejalarini ishlab chiqqan bo'lishi lozim. SHuningdek, uyushma va fermerlar o'rtasidagi suv oldi-berdisi hisob-kitobini to'g'ri yo'lga qo'yishi zarur. Buning uchun avvalo uyushma va fermerlarning suv olish qulqlari suv oqimini rostlash va o'lchash inshootlari bilan to'liq jihozlangan bo'lishi shart.

8. "Mash'al ildam sardori" fermer xo'jaligi sug'orishdan besh kun oldin SIUga suv olish uchun yozma talabnama berishi lozim. Suv iste'molchilari o'rtasida suvdan navbatma-navbat foydalanishni yo'lga qo'yish suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanishning eng asosiy shartlaridan sanaladi.

9. SIU hududida kanaldan olinayotgan suvni kichik miqdorlarga bo'lib barchaga bir tekis tarqatib yuborilsa, suv shimalishi va bug'lanishi ko'payib, har bir gektarni sug'orish uchun sarflanayotgan suvning umumiyligi miqdori ko'payib, sug'orish vaqtি cho'zilib ketadi. Sug'orish navbat bilan o'tkazilganda esa, katta miqdordagi suv avval bir dalaga keyin boshqa dalaga beriladi. Natijada sug'orish tez amalga oshiriladi va sug'orish kanallaridagi suv isrofi 10–20, dala ariqlaridagi suv isrofi 30–35 foizgacha kamayadi.

10. "Mash'al ildam sardori" fermer xo'jaligi ekin maydonlarida suv resurslaridan oqilona foydalanishni yo'lga qo'yish uchun quyidagi sug'orishning suv tejovchi usullarini qo'llash lozim:

❖ Kalta egatlar bilan sug'orish. Bu usulda egatning uzunligi (ikki o'qariq o'rtasidagi masofa) tuproq sharoitidan kelib chiqib 50–60 m qilib belgilanadi. Bunda oqovaga chiqadigan suv miqdori keskin kamayadi, egatlar butun uzunligi bo'yicha bir tekis namlanishiga erishiladi. Natijada ekin dalasiga berilayotgan suv miqdori 15–20 foizga kamayadi.

❖ Egatlar oralatib sug'orish. Bu usulda ekin dalasiga suv egatlar orasidagi har bir ariqdan emas, balki egat oralatib, ya'ni bir ariqdan suv oqizilib, navbatdagi ariq quruq qoldirilgan holda beriladi. Bunda tuproqdan suv

bug'lanishi va tuproqqa suv sizilishi keskin kamayadi. Natijada dalani sug'orishga sarflanadigan umumiy suv miqdori 20–25 foizgacha kamayadi.

❖ Dalalardagi notekisliklar muamosini xal etishning samarali usuli bo'lib yerkarni tekislash hisoblanadi. yerkarni tekislash suvning bir tekis tarqalishiga halal beruvchi notekisliklarni yo'qotishi mumkin Natijada bu uslub o'simliklar hosildorligini oshirish bilan birgalikda suvni tejash usullaridan foydalanishga qulay sharoit yaratadi, bu esa o'z navbatida sho'rланish darajasini kamaytiradi.

❖ Sug'orishni sharbat usulida olib borish suvdan samarali foydalanishda muhim rol o'ynaydi. SHarbat usuli qo'llanilganda go'ng g'o'zani oziqlantiribgina qolmay, balki mulcha vazifasini ham bajaradi. Bunda suvning bug'lanishi va tuproqqa singishi keskin kamayadi.

11. "Mash'al ildam sardori" fermer xo'jaligini istiqboldagi rivojlanishi ko'p jihatdan uni jamoasining kasbiy tayyorgarligi va xo'jalikdagi mutaxxassis kadrlardan qay darajada samarali foydalanishiga bog'liqdir. YUqoridagalarni hisobga olib fermer xo'jaligida a'zolarning kasbiy tayyorgarligini va ma'lumotini oshirish chora tadbirlarining ko'rish o'ta dolzarb masala hisoblanadi. Bu sohada fermer xo'jaligi maxsus dastur tuzib uni bosqichma-bosqich amalga oshirilishini ta'minlash lozim, aks holda fermer xo'jaligini zamon talablariga mos holda rivojlantirish hamda uni texnik texnologik va iqtisodiy mustaqilligini to'la ta'minlash masalasini ijobjiy hal etish imkoniyati bo'lmaydi.

12. Xo'jalikning erishgan rentabellik darajasi talabdan past bo'lib uni optimal darajaga yetkazash uchun kamida 40 foizga ko'tarish talab qilinadi. Aks holda fermer xo'jaligi kengaytirilgan takror ishlab chiqarish uchun yetarlicha moliyaviy imkoniyatlarga ega bo'lmaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 1992 yil 8 dekabr. // T.: «Adolat», - 1999.
2. O'zbekiston Respublikasining yer kodeksi va qishloq xo'jaligiga oid qonun hujjatlari. // T.: «Adolat», - 1999.
3. «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 1998 yil 30 aprel. Qishloq xo'jaligiga oid qonun hujjatlari. // T.: «Adolat», - 1999.-B.
4. «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 1998 yil 30 aprel.. Qishloq xo'jaligiga oid qonun hujjatlari. // T.: «Adolat», - 1999.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari

1. «Iqtisodiètning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari Dasturi to'g'risida»gi 4050-soni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2008 yil 28 noyabr.
2. «Dehqon va fermer xo'jaliklarini davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash hamda mamlakatni oziq-ovqat bilan ta'minlashda ularning rolini kuchaytirish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. // № PF-1737, 18 mart 1997 yil – O'zbekiston Respublikasi moliyaviy qonunlari.- 1997 y.
3. «Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilaridan yagona yer solig'ini undirish tartiblari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. // 1998 yil. 26 dekabr.- № 539.
4. «Fermerlarni, xususiy tadbirkorlarni hamda kichik va o'rta biznesning boshqa sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. 4 mart 2000 yil. №75. // O'zbekiston Respublikasi xukumatining qarorlari to'plami.-2000.-№3.

5. «O’zbekiston Respublikasida yer monitoringi to’g’risida»gi O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 23 dekabr 2000 yil. №496. // O’zbekiston Respublikasi xukumatining qarorlari to’plami.-2000.-№12.
6. «Dehqon va fermer xo’jaliklarini qo’llab-quvvatlash jamg’armasi to’g’risidagi Nizomni hamda uning mablag’larini jamg’arish va ulardan foydalanish tartibini tasdiqlash va 1997 yil 27 oktyabrdagi 486-son qarorini o’zgartirish to’g’risida» O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 13 fevral 2003 yil. №76. // O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami. –2003 yil 3-son._modda.
7. «Qishloq xo’jaligi ishlab chiqarishini davlat tomonidan qo’llab-quvvatlashga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida» O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. // 14 fevral 2003 yil.-№79.

3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari va ma’ruzaları

1. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas’ulmiz. T.9.T.: «O’zbekiston», 2001.
2. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma’naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish-barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. // T.: «O’zbekiston», 2007.
3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralar. // T.: «O’zbekiston», 2009.
4. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakati-mizni 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo’ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo’nalishla-riga bag’ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi. //Xalq so’zi, 2014 yil 18 yanvar.
5. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 2014 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2015 yilga mo’ljallangan iqtisodiy dasturni eng muhim ustuvor yo’nalishlariga bag’ishlangan O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi “2015 yilda

iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish - ustuvor vazifamizdir" mavzusidagi ma'ruzasi. //Xalq so'zi gazetasi, 2015 yil 18 yanvar.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 2015 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturni eng muhim ustuvor yo'naliшlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borilayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir"//Xalq so'zi, 2016 yil 16 yanvar.
7. Karimov I.A. O'zbekiston XX1-asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -Toshkent: O'zbekiston, 2000.
8. Karimov I.A. Dehqonchilik taraqqiyoti - to'kin hayot manbai. -Toshkent: O'zbekiston, 1998.
9. Karimov I.A. O'zbekiston milliy istiqlol, iqtisod siyosat-mafkura. -T: O'zbekiston, 1996.
10. Karimov I.A. Istiqlol yo'li: muammolar va rejalar. -T: O'zbekiston, 1996.
11. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. - Toshkent, 1995.
12. Karimov I.A. O'zbekiston - bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. -Toshkent: O'zbekiston, 1993.

2. Asosiy adabiyotlar

1. Altiyev A.S. «Sug'oriladigan yerlar inventarizatsiyasi» // Ensiklopediya. «Paxtachilik», T.: T-2, 1990 g.
2. Kayumov F.K. «Effektivnost APK v usloviyah perexoda k ro'nu: obhiye i regionalno'e problemo'». -M.: IPO «Poligran», 1992 g.

3. Umurzakov O’P. «Povo’sheniya effektivnosti ispolzovaniya resursnogo potensiala agrarnogo sektora ekonomiki Uzbekistana». «FAN», T.: 2006.-216 s.
4. Xoshimjonov M., /oziyev X. «Sug’oriladigan yerlarni iqtisodiy jihatdan baholash». // T.: «Mehnat».-1986. B. 68
5. Umurzakov O’P., Abduraximov I.L. «Suv xo’jaligi menejmenti», «Iqtisod-moliya» nashriyoti. T.: 2008. 1-jild. 608 B., 2-jild 468 B.
6. Xudayberganov Z.YA. Suv resurslaridan samarali foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari. Monografiya. «Iqtisod-moliya» nashrièti. T.: 2009. 204 B.
7. Djalalov S.CH. Oroshaemoye v usloviyax defitsita vodnyx resursov. «Ehina ENK» 2000 g.
8. Abdug’aniyev A., Abdug’aniyev A.A. Qishloq xo’jaligi iqtisodièti. Darslik. T.: TDIU, 2004.
9. Matlin G.M. Ekonomicheskiye problemy optimizatsii prirodopolzovaniya. M.: Nauka, 1972.
10. Loyter M.N. Intensifikatsiya i fondoottacha v melioratsii // Voprosy ekonomiki. 1985. №6.
11. Sultanov A.S., Xo’jaev S., Minin D.A. Sug’oriladigan yerlar suv xo’jaligi ekonomikasi. T.: «Mehnat», 1989.
12. Nigmadjanov U.X. Perexod k vodosberegayuhim texnologiyam-aktualnaya zadacha. J.: Selskoye xozyaystva Uzbekistana, 2011 №3. s.38-39.

4. Jurnal va gazetalardagi maqolalarga havolalar

1. Qosimov M. Fermer xo’jaliklarida iqtisodiy barqarorlikning asosiy omillari. // Jurnal. O’zbekiston qishloq xo’jaligi. T.:2014.-№6.-B.10.
2. Ahmadjonov V. Suv resurslaridan oqilona foydalanish. // Jurnal. O’zbekiston qishloq xo’jaligi. T.:2014.-№4.-B.15
3. Umurzakov O’., Umarov S. Irrigatsiya infratuzilmalari. // Jurnal. O’zbekiston qishloq xo’jaligi. T.:2015.-№4.-B. 26.
4. Jaloliddinov A. Qishloq xo’jaligini qo’lllab-quvvatlash samarasi. // Jurnal.

O'zbekiston qishloq xo'jaligi. T.:2014.-№5.- B. 40.

5. SHoxo'jaeva Z., To'xtaboyev J, Xo'jamqulova I. Suv resurslaridan unumli foydalinish omillari. // Jurnal. Agro ilm. T.:2014.-№2(14).-B. 50-51.
6. Rizaev. T. Suv istemolchilari uyushmalarining faoliyatini muvofiqlashtirish muammolari va yechimlari. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali. № 2, 2013.
7. Farmonov J. Fermer xo'jaliklarini barqaror rivojlantirishning yangi imkoniyatlari. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali. №4, 2014.

5. Konferentsiyalar, statistik to'plamlar va xisobotlar

1. Abdullaev A., SHermatov O., Raxmonova. B. O'zbekiston fermerlari kengashini tashkil etilishi agrar islohotlarni chuqurlashtirishning yangi bosqichidir. Andijon mashinasozlik institutidagi konferensiya materiallari, 2013.
2. Abdullaev A., SHermatov O. Qishloq xo'jaligini modernizatsiyalash sharoitida fermer xo'jaligi mahsuloti raqobatdoshligini oshirish omillari. //Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilishning asosiy yo'nalishlari. O'zbekiston bozor islohotlari ilmiy tadqiqot instituti, 2013.
3. O'zbekiston suv taminotini yaxshilashga kompleks èndashuvning zaruriyati. «Qishloq va suv xo'jaligining zamonaviy muammolari» mavzusidagi iqtidorli talabalar, magistrantlar va èsh olimlarning XI-Respublika ilmiy amaliy anjumani tuplami 2014 yil 10-11 may. TIMI.
4. Kishlok va suv xujalik korxonalarini kukllab kuvatlashga sarflanadigan sarmoyalarning iktisodiy samaradorligi. «Qishloq va suv xo'jaligining zamonaviy muammolari» mavzusidagi iqtidorli talabalar, magistrantlar va èsh olimlarning XI-Respublika ilmiy amaliy anjumani tuplami 2015 yil 10-11 may. TIMI.
5. Andijon viloyati qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasi hamda fermerlar kengashining 2013-2015 yillar uchun biznes rejalari, yillik hisobotlari, shartnomalari hamda shu kabi boshqa ma'lumotlari.
6. Qo'rg'ontepa tumanidagi "Omad hamkor ishonch" fermer xo'jaligining 2013-2015 yillardagi biznes rejalari, yillik hisobotlari va boshqa ma'lumotlar.

6. Internet manbalari

1. www.press-service.uz
2. www.pravo.uz
3. www.ziyonet.uz
4. www.lex.uz
5. www.gov.uz
6. www.agro.uz